

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

# VATANPARVAR

●Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan ●2023-yil 3-noyabr, №44 (3054)




**BIZ**  
HAQIMIZDA

IJTIMOY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY

@vatanparvar-bt@umail.uz  
t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi  
instagram.com/mudofaavazirligi  
c/uzarmiya

UZBEKISTON MUDOFALAR GAZETASI



YENGIB BO'LMAS  
TO'SIQ YO'Q



MOVY BERET  
SOHIBLARI  
ANIQLANDI

4



HAMKORLIKDAGI  
MASHG'ULOTLAR  
MUVAFFAQIYATLI  
YAKUNLANDI

5



TILOVOV "KATTA  
DUBULG'A" DA HAM  
SOVRINDOR

19

## O'ZBEKISTON VA FRANSIYA PREZIDENTLARI IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIGA KO'TARISHGA KELISHIB OLDILAR

**Samarqand shahridagi Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.**

Uchrashuv avvalida mamlakatimiz yetakchisi Fransiya Prezidentining O'zbekistonga oxirgi 30 yildagi ilk tashrifi tarixiy ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

Emmanuel Makron davlatimiz rahbariga tashrif bilan kelish taklifi hamda Fransiya delegatsiyasiga ko'rsatilayotgan samimiy mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirdi.

Fransiya rahbari Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar dasturini to'liq qo'llab-quvvatladi.

Yetakchilar Fransiya bilan O'zbekiston o'ttasidagi keng qamrovli hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalarini atroflicha muhokama qildilar hamda ikki tomonlama munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko'tarishga kelishib oldilar.

Keyingi yillarda ko'p qirrali O'zbekiston – Fransiya munosabatlari barcha yo'nalishlarda jadal rivojlanib borayotgani ta'kidlandi.

Tovar ayirboshlash va qo'shma korxonalar soni karrasiga oshgani mammuniyat bilan qayd etildi. Joriy va

istiqbolli loyihalar portfeli 10 milliard yevrodan oshdi.

Fransiya taraqqiyot agentligi bilan 1 milliard yevrolik Strategik hamkorlik dasturi amalga oshirilmoqda.

"Yashil" energetika, xomashyo resurslarini qazib olish va qayta ishslash, innovatsion qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, logistika, infratuzilmani rivojlantirish, turizm va boshqa sohalarda yangi yirik loyihalarni ilgari surish choratadbirlari muhokama qilindi.

Fransiya O'zbekistonning Markaziy Osiyoda ishonchni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini, shuningdek mamlakatimizning JSTGa a'zo bo'lishini hamda Yevroittifoq bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim tez fursatda imzolanishini bundan buyon ham qo'llab-quvvatlashga tayyor ekani ta'kidlandi.

Siyosiy muloqotni davom ettirish, xavfsizlik, yuzaga kelayotgan tahdid va xatarlarga samarali qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhimligi qayd etildi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik kun tartibi boy ekani mammuniyat bilan ta'kidlandi. O'zbekistonda fransuz tilini o'rganishga qiziqish ortib borayotgani aytildi. Shu munosabat bilan tomonlar Fransiya alyansining Samarqanddagi filiali ochilishini olqishladilar.

Toshkent shahrida O'zbekiston – Fransiya oliy ta'lif muassasasini ochishni tezlashtirish hamda fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlash borasidagi hamkorlikni kengaytirishga kelishib olindi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

## O'ZBEKISTON VA FRANSIYA DELEGATSIYALARINING KENGAYTIRILGAN TARKIBDAGI MUZOKARALARI BO'LIB O'TDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning muzokaralari ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom etdi.**

Davlatimiz rahbari uchrashuvni ochar ekan, Fransiya Prezidentiga rasmiy shaxslar, yetakchi kompaniyalar rahbarlari, taniqli madaniyat va fan arboblaridan iborat nufuzli delegatsiya boshchiligidagi O'zbekistonga kelgani uchun minnatdorlik bildirdi.

– Bu sizning O'zbekiston – Fransiya do'stlik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlashga shaxsiy e'tiboringiz va alohida yondashuvning yorqin tasdig'idi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Muntazamlik kasb etgan oliy darajadagi uchrashuvlar tufayli

ikki mamlakat munosabatlari keng qamrovli tus olgani ta'kidlandi.

Tomonlar faol siyosiy aloqalarni, parlamentlar, hukumatlar, tashqi siyosiy va iqtisodiy idoralarning muntazam muloqotini davom ettirishga kelishib oldilar.

Hisob-kitoblarga ko'ra, yaqin orada 1 milliard yevroga yetishi kutilayotgan tovar ayirboshlash jadal o'sayotgani mammuniyat bilan qayd etildi. Joriy va istiqbolli loyihalar portfeli 10 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda.

Yurtimizda Fransiyaning Orano, EDF, Total, SUEZ, Eiffage, Voltalia, Lactalis, Veolia va ko'plab boshqa

yetakchi kompaniyalari muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

Davlatimiz rahbari qazib olish tarmog'i, strategik xomashyo resurslarini qayta ishslash, gibrild, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, suv ta'minoti tizimlarini modernizatsiya qilish, "aqlli" qishloq xo'jaligini joriy etish, shahar va transport infratuzilmasini rivojlantirish, turizmni hamkorlikning ustuvor sohalari sifatida qayd etdi.

Ishbilarmonlar o'ttasidagi sheriklikni ilgari surish uchun O'zbekiston – Fransiya savdo palatasi ishga tushishi hamda Toshkentda "Business France" agentligining ofisini ochish rejalashtirilayotgani e'lon qilindi.

Gumanitar sohadagi hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida uch yillik dastur qabul qilish va uning doirasida o'zaro Madaniyat kunlarini o'tkazish taklif qilindi.

Tomonlar Samarqand shahrida Fransiya alyansi filiali ochilishini olqishladilar hamda qo'shma oliy ta'lif muassasasini tashkil etishni jadallashtirishga kelishib oldilar.

Fransyaning turli shaharlardan Samarqand, Buxoro va Xivaga charter reyslarni tashkil etgan holda sayyoohlар almashinuvini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish tashabbusi ilgari surildi.

Xalqaro kun tartibidagi masalalar, xavfsizlikka umumiy xatar va tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlikni davom ettirish yuzasidan fikr almashdildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston yetakchisi Fransiya Prezidentiga 2024-yilda Parij shahrida yozgi Olimpiya o'yinlari muvaffaqiyatli o'tishini tiladi.

Davlat rahbarlari erishilgan barcha kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tayyorlashga topshiriq berdilar.

## O'ZBEKISTON VA FRANSIYA O'RТАSIDАГИ HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN QATOR IKKI TOMONLAMA HUIJATLAR IMZOLANDI

**Samarqand shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron qo'shma bayonot qabul qildilar.**

Hujjatda ikki davlatning o'zaro munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko'tarish niyati qayd etilgan.

Ikki tomonlama hamkorlikning joriy holatiga hamda turli sohalarda davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish istiqbollariga baho berilgan, tomonlar xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni

chuqurlashtirishga, dolzarb global va mintaqaviy muammolarni birgalikda hal qilishga intilishi tasdiqlangan.

Prezidentlar huzurida moliya, ta'lif, madaniyat va ikki tomonlama hamkorlikning boshqa yo'nalishlari bo'yicha 8 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi. Jumladan:

- "Samarqand Fransuz Alyansi"ni tashkil etish va uning faoliyati to'g'risida hukumatlararo bitim;

- O'zbekistonda ichimlik suvi ta'minoti infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha hukumatlararo moliyaviy bayonnomalar (1- va 2-bosqichlar);

- O'zbekistonda Fransiya taraqqiyot agentligi va "PROPARKO"ni tashkil etish va ularning faoliyati to'g'risidagi hukumatlararo bitimga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida bayonnomma;

- tashqi ishlar vazirliklari o'rtaida diplomatik kadrlar tayyorlash

- sohasidagi hamkorlik to'g'risida deklaratsiya;

- maktabgacha, maktab, professional va oliy ta'lif sohasidagi hamkorlik bo'yicha bayonnomma;

- madaniy meros sohasidagi hamkorlik to'g'risida deklaratsiya;

- professional va texnik ta'lif sohasidagi hamkorlik to'g'risida kelishuv.

Shuningdek, tashrif doirasida O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi hamda "SUEZ" va "Bouygues" kompaniyalari o'rtaida hamkorlik to'g'risida deklaratsiyalar imzolandi.



## QUROLLI KUCHLAR USTIDAN FUQAROLIK NAZORATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining matbuot anjumani bo'lib o'tdi.



Anjumanda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi Iqboljon Mirzaaliyev, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi, Jamoatchilik kengashi raisi o'rinnbosari Qutbidin Burxanov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, kengash a'zosi, professor Hamidulla Dadaboyev hamda Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari – boshqarma boshlig'i polkovnik Mehriddin Qo'chqorov "Xalq va armiya yakdilligi

yo'lida" mavzusida ma'ruza qilib, respublika ommaviy axborot vositalari vakillarining savollariga javob berdi.

Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tashkil etilganiga 24-oktabr kuni 11 yil to'ldi. Shu davr mobaynida kengash mudofaa va harbiy qurilish sohasida olib borilayotgan davlat siyosatiga daxldor eng dolzarb masalalarga oid jamoatchilik fikrini o'rganish, fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirishdan boshlab, rezervga bo'shatilgan fuqarolarning ijtimoiy va professional moslashuvigacha bo'lgan masalalarda samarali faoliyat olib bordi. Bu haqda kengash raisi va a'zolari

qisqacha axborot berib, Mudofaa vazirligi faoliyatida shaffoflik va oshkorlikni ta'minlash, "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon" degan g'oya asosida amalga oshirilgan ishlari bir tomondan Vatan himoyachilarining kayfiyatini, ularga yaratilayotgan shart-sharoitlarni, Qurolli Kuchlarda kechayotgan islohotlar, o'zgarishlarga harbiy xizmatchilarning munosabatini aniqlashga imkon bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan xalqimizning o'z armiyasiga bo'lgan e'tiborini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanganini e'tirof etdilar.

Jamoatchilik kengashi faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan Jamoatchilik kengashining 35 nafr a'zodan iborat yangi tarkibi, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda Jamoatchilik kengashi hududiy bo'linmalarining yangilangan namunaviy tarkibi tasdiqlandi.

Kengash komissiyalari va a'zolari tomonidan yil davomida bir qator keng qamrovli ishlari olib borildi. Jumladan, Sog'liqni saqlash vazirligining hududiy boshqarmalari, "Sog'liom avlod uchun" fondining filiallaridagi ko'chma brigada shifokorlari tomonidan olis garnizonlarda 21 916 nafr harbiy xizmatchining oila

a'zolari chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

2022–2023-yillarda muddatli harbiy xizmatni o'tagan 1 100 nafr fuqaro o'ttasida ijtimoiy tadqiqot o'tkazilib, umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani darslarining sifati, muddatli harbiy xizmatga chaqiruv punktlarida yaratilgan sharoitlar, tibbiy komissiyalar faoliyati, harbiy xizmatchilarning o'z huquqlarini bilish darajasi hamda muddatli harbiy xizmatni tugatib qaytg'an fuqarolarning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan masalalar o'rganildi.

Mudofaa vazirligi hamda kuch tuzilmalari hamkorligida ishlab chiqilgan "Harbiy xizmatchilar maqomi va ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, "Faxriylar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaring umumharbiy nizomi" loyihalari o'rganib chiqilib, tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Shimoli-g'arbiy, Markaziy va Toshkent harbiy okruglarda qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi, zamonaviy qurol-yarog'lar, harbiy texnika, o'quv-moddiy baza, oziq-ovqat va boshqa moddiy-teknik ta'minot turlari bilan butlanishi, harbiy sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga riosa etilishi ko'rib chiqildi.

Harbiy qismlarga tashrif vaqtida harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilinganlik darajasi, har bir hududning o'ziga xosligi o'rganilib, hududiy bo'linmalar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha kengash a'zolari va harbiy okruglar qo'mondonligiga tegishli taklif va tavsiyalar berildi. Bir so'z bilan aytganda, kengash tomonidan amalga oshirilayotgan ishlari natijasida Qurolli Kuchlar ustidan samarali fuqarolik nazorati mexanizmi shakllanib borayotganligini kuzatish mumkin.

Anjumanda Mudofaa vazirligini fuqarolar bilan bog'lab turuvchi "ko'prik" vazifasini bajarib kelayotgan Jamoatchilik kengashi va uning hududiy bo'linmalarini endilikda zimmalaridagi vazifalarni yangi bosqichda, ko'tarinkilik va fidoyilik bilan, mamlakatimizdag'i o'zgarishlarga hamohang tarzda davom ettirishlari ta'kidlandi.

Furqat ERGASHEV



## QOZOG'ISTON DELEGATSIYASI HARBIY TIBBIYOT AKADEMIYASIDA

Mamlakatimiz qo'shni qardosh davlatlar bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarida ushuvor ekaniga guvohmiz. Turli yo'nalish va turli sohalardagi bu do'stona hamkorliklar o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Mana shunday hamkorlik aloqalarini harbiy tibbiyotda ham yo'lga qo'yilgan. Qozog'iston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy tibbiyot xizmati delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasiga tashrif buyurdi.

Qozog'iston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot bosh boshqarmasi boshlig'i tibbiy xizmat polkovnigi Smayil Erjan Erjumanovich boshchiligidagi delegatsiyasi a'zolariga dastlab Harbiy tibbiyot akademiyasining infratuzilmasi, o'quv-moddiy bazasi bo'yicha ma'lumot berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi imkoniyatlardan hamkorlikda foydalanish, ya'ni bakalavr darajasida kursantlarni o'qitish, harbiy internaturada, klinik ordinaturada hamda magistraturada tinglovchilarni o'qitish, harbiy shifokorlarni mutaxassisliklar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali va Qozog'iston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy gospitallarida malaka oshirishni tashkilashtirish, hamkorlikda murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish kabi masalalar ko'rib chiqildi va muhokama etildi.

Tibbiy maqsadlarda ishlab chiqilgan mahsulotlarning ko'rgazmasi bo'yicha takliflar, hamkorlik borasida o'zaro savol-javoblar amalga oshirildi.

So'ngra mehmonlar tibbiyot akademiyasining tibbiy o'quv-mashq – simulyatsiya markazi, o'quv sinflari, kursantlar yotoqxonasi, kutubxonasi va sport shaharchasida bo'lishdi. O'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Delegatsiya a'zolari kunning ikkinchi yarmida Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitalida bo'lib, u yerdagi so'nggi rusumda jihozlangan jarrohlik, davolanish xonalari va bemorlarga yaratilgan sharoit bilan yaqindan tanishdi.

Shubhasizki, ikki davlat o'rtasida amalga oshirilgan hamkorlikdagi harbiy tibbiyot aloqalarini istiqbolda ezgulikka xizmat qiladi. Navbatdagi yangi rejalgara zamin yaratadi.

Zulfiya YUNUSOVA,  
«Vatanparvar»



# MOVIV BERET SOHIBLARI ANIQLANDI

Toshkent harbiy okrugi “Markaz” desantchilar tayyorlash bazasi va “Chirchiq” umumqo’shin poligonida Mudofaa vazirligi havo-desant bo’linmalarida xizmat qilish istagini bildirgan harbiy xizmatchilarni saralash sinovlari o’tkazildi.



Quvonchbek SUYUNOV, Oyatullo NEMATOV



Besh kun davom etgan saralash tadbirlarida yurt posbonlari bir-biridan murakkab to’siqlarni mardonavor yengib o’tdilar. Dastlab chuqurlashtirilgan tibbiy ko’rik xulosasiga ko’ra, yaroqli deb topilgan harbiy xizmatchilarning mantiqiy tafakkuri va psixologik barqarorligi harbiy-kasbiy tanlovda test savollari orqali aniqlandi. Shuningdek, 100 metr va 5 kilometrga yugurish, turnikda tortilish singari majmuaviy jismoniy tayyorgarligi sinovdan o’tkazildi.

“Chirchiq” umumqo’shin poligonida nomzodlar jismoniy zo’riqish to’siqlari yo’lagidan o’tish me’yorini sabot bilan muvaffaqiyatli bajardi. Mazkur bosqichdagi maxsus to’siqlarni yenggan o’g’lonlar 15 kilometrlik masofaga yugurdi. Belgilangan vaqt davomida boks ringidagi qaqshatqich zarbaldan himoyalanib, g’animlarga munosib raqib ekanini isbotlagan nomzodlar pichoq uloqtirish mashqini ham a’lo darajada uddaladi.

Saralash yakunida barcha sinovlardan yuqori natijalar bilan o’tgan nomzodlarga tantanali ravishda moviv beret va sertifikat topshirildi. Bundan tashqari, ularning yangi lavozimga tayinlangani haqida mudofaa vaziri o’rinbosarining buyrug’i o’qib eshittirildi.

– Boshimdagi moviv beret yelkamga katta mas’uliyat yuklaydi, – deydi kontrakt bo’yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Ibrohimjon Abdurahmonov. – Bugun bolalikdan orzu qilgan maqsadimga erishdim. O’quvchilik davrimdan beri

karate, qo’l jangi, boks bilan shug’ullanib, jismoniy tayyorgarligimni oshirganim besamar ketmadи. Hatto 5 kilometrlik masofaning marra chizig’idan birinchi bo’lib o’tdim. Eng sharafli kasb – Vatan himoyasi. Mamlakatimiz havo sarhadlari daxlsizligini ta’minlash, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish yo’lida sadoqat bilan xizmat qilaman!

Katta leytenant  
Dilshod RO’ZIQULOV,  
«Vatanparvar»

# HAMKORLIK DAGI



## MASHG'ULOTLAR MUVAFFAQIYATLI YAKUNLANDI

Bugun dunyoning olis va yaqin mintaqalarida murakkab mojarolar-u to'qnashuvlar davom etayotgan bir paytda jonajon O'zbekistonimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarni yanada samarali tashkil etish, sarhadlarimiz daxsizligini ishonchli kafolatlash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini muştahkamlash, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog va texnikalar bilan ta'minlash, bo'linmalarni boshqarishda axborot texnologiyalarini keng qo'llash, shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligi va kasbiy mahoratini muntazam ravishda oshirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda respublikamizdagi kuch tuzilmalarining o'zaro hamkorlikda olib borayotgan sa'y-harakatlari natijasida esa Yangi O'zbekistonimizda inson qadrini ulug'lash, bунyodkor xalqimizning tinch va osuda hayotini ta'minlab, musaffo osmonimizni asrab-avaylashdek ezgu maqsadlarga erishilmoqda.

Mamlakatimizning sharqiy hududi hisoblangan Namangan, Farg'on'a va Andijon viloyatlarining qo'shni davlatlar bilan chegaradosh hududlarida DXX Chegara qo'shinlari hamda Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik, qo'mita va idoralar bilan hamkorlikda



o'tkazilgan "Boshqaruv organlari va bo'linmalarning jangovar shayligini tekshirish, davlat chegarasida shartli dushmanning qurolli bosqinini daf etish" mavzusidagi o'quv mashg'ulotlari ayni shu maqsadlarni ko'zlagan holda tashkil etildi.

O'quv rejasiga ko'ra, davlat chegarasida shartli dushman tomonidan bir vaqtning o'zida bir nechta yo'nalishlarda qurolli bosqin uyuştirilgach, hamkorlik rejasiga asosan o'quvg'a jalb qilingan barcha bo'linmalar jangovar shay holatga keltirildi. Shundan so'ng o'quv bo'yicha

jangovar vazifalarni bajarish maqsadida hamkorlikdagi kuch tuzilmalarining birgalikdagi boshqaruv shtabi tuzildi. Ular tomonidan davlat chegarasida yuzaga kelgan vaziyat o'rganilib, dushmanning maqsadi va harakatlar g'oyasi aniqlandi, shartli dushmanning qurolli bosqinini daf etish hamda qurolsiz fitnalarning oldini olish bo'yicha qarshi hujum rejali iishlab chiqildi.

Yuzaga kelgan tahdidni bartaraf etish bo'yicha qabul qilingan qarorga asosan, kuch tuzilmalarining tegishli bo'linmalari tomonidan davlat chegarasi daxlsizligini ta'minlashda hamkorlikdagi amaliy harakatlar olib borilib, davlat chegarasi sohasida yuzaga kelgan ommaviy tartibsizliklarga chek qo'yildi. Harakatlangan shartli dushmanning qurolli bosqinini daf etish maqsadida bo'linmalar tomonidan taktik harakatlar bilan jangovar o'q otish mashg'ulotlari o'tkazildi va chegara oldi mahalliy aholi punktlarida tezkor-qidiruv hamda targ'ibot tadibirleri amalga oshirildi.

Yakunda erishilgan natijalar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar sarhisob qilingach, hamkorlikdagi harakatlarni yanada takomillashtirish maqsadida kelgusida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jihatlar va shu asosda o'quv rejalariga kiritiladigan o'zgartirish hamda qo'shimchalar xususida kelishib olindi.



# HAYOTI HAVASGA ARZIYDI

Inson qaysi sohada xizmat qilmasin, avvalo salomatligini saqlashi zarur. Ko'pincha sog'lig'imizga bee'tiborligimiz, o'zimiz haqimizda qayg'uravermaganimiz oqibatida tanamizda u yoki bu xastaliklarga "zamin hozirlaymiz". Tibbiy xizmat polkovnigi Husan Xudenov dardiga davo i'stab kelganlarga salomatlikni asrash borasidagi foydali maslahatlarini erinmay tushuntiradi. Hatto bemorining ko'ziga tik boqib, uni sog'aytirishga ishontiradi, ruhan dalda beradi. Ha, u shunday salomatlik posboni, shifokor-xirurg.



32 YILLIK MUKOFOT

Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali bosh mutaxassisasi – shoshilinch xirurgiya bo'limi boshlig'i tibbiy xizmat polkovnigi Husan Xudenovning 2023-yili Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi arafasida Prezident farmoniga muvofiq, II darajali "Salomatlik" ordeni bilan mukofotlangani qahramonimizning harbiy tibbiyotdagagi 32 yillik mehnatlariga munosib rag'bat bo'ldi. Bu, avvalo, uning oilasi, qolaversa, gospital jamoasi uchun ham katta e'tirof. U jamoasida fidoyi ustoz, o'z kasbining mohir ustasi. Sog'lom turmush tarzining hadisini olgani, odamoxunligidanmi, bemorlari tezda shifo topib, dard ko'magandek bo'lib ketadi. Bir shifokor uchun shunday ortiq baxt bormi?!

## SOHA SIRLARIDAN SABOQ

– Ustozimizdan har jahbada o'rnak olaman, – deydi Markaziy harbiy klinik gospitali shoshilinch xirurgiya bo'limi katta ordinatori



tibbiy xizmat kapitani Zuhreddin G'aniyev. – 6 yildan beri mena nafaqat mutaxassis, balki otalardek g'amxo'rlik bilan soha sirlarini beminnat o'rgatib kelmoqda. Otalardek deyishim bejiz emas. Chunki o'g'li tibbiyot institutining 6-bosqich talabasi sifatida gospitalga amaliyotga kelganida Husan Yusupovichning o'z farzandiga munosabatlarni kuzatganman. Muayyan patologiya bor a'zoda o'tkaziladigan jarrohlik amaliyotlarida ustoz bizni yoniga olib, nimalarga e'tibor qaratish, operatsiyadan keyingi davrda bemorga qanday yondashish zarurligi to'g'risida amaliy ko'nikmalarni og'irlik, bosiqlik bilan tushuntiradi. "Jarrohlikda hech qanday mayda narsa bo'lmaydi. Mayda deb o'ylagan narsangiz ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak", deya tibbiyot xodimining zimmasidagi zalvarli mas'uliyatini yoddan chiqmas darajada uqtirgan. "Ustoz-shogird" an'anasi asosida tahlil jarayoni bo'ladimi, o'rgatgan bilimlarini o'zlar namuna bo'lib, biz bilan birgalikda parallel ravishda bajaradi va babbaravar, to'g'ridan to'g'ri amalda ko'rsatadi. Kun-u tun o'z ustida ishlashdan to'xtamaydi, kamtarinligi, xorijiy tillarni bilishi havasimizni

uyg'otadi. Hayotda biror odamga qattiq ovozda gapirganini eshitmaganman. Shunday yetuk mutaxassis, fidoyi ustozimizning davlat mukofoti bilan taqdirlanishi biz uchun sharaf. Men ularning shogirdi ekanim va bir jamoada xizmat qilayotganimdan faxlanaman.

## SHIFOKORLAR SULOLASI

Qahramonimiz bilan suhbatlasha turib, uning insoniy xislatlari, samimiyligini qisqa fursatda idrok etasiz. Buni gospitaldagagi boshqa hamkasbleri, shogirdlari ham alohida ta'kidladi. Ish jarayoni, jamoaning fikri va ishchanlik kayfiyatini tasvirlarga muhrlagandan so'ng Husan aka bilan uyiga yo'l oldik. Yo'l-yo'lakay oilasi haqida so'rayman.

– Ismingizdan yolg'iz tug'ilmaningiz sezilib turibdi. Egizagingiz kim va qaysi sohada ishaydi?

– Hasan akam bor, u ham shifokor. Umuman, oilaviy shifokormiz. Turmush o'tog'im hamshira, o'g'lim, qizim va kelinim ham tibbiyot yo'nalishini tanlagan. Ota kasbida baraka bor, deyishadi. Shu kasbni



egallab, kam bo'lmadik. Taqdirimdan hech ham nolimayman. Aksincha, sabr-qanoat bilan inson barcha ko'zlagan maqsadiga erishishi mumkin.

Shu kuni ijodiy guruhimiz bilan tibbiy xizmat polkovnigi Husan Xudenovning davlatimiz tomonidan imtiyozli asosda berilgan xonardonida oila a'zolari bilan suhbatlashdik. Harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi, farzandlarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishida berilayotgan imkoniyatlardan mammun. Farzand-u nabiralar ardog'ida umrguzaronlik qilayotgan qahramonimiz hayoti havasga arzigelik.

## JAHON STANDARTLARI DARAJASIDA

– Egnimga harbiy libos kiyganimga 30 yildan oshdi. Shu vaqt oralig'ida yurtimizning turli hududlarida, xususan Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida xizmat qildim, o'nlab shogirdlar chiqardim. Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha sohalar qatori harbiy tibbiyot tarmog'ida ham salmoqli islohotlar, shiddatlari va ijobji o'zgarishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz tashabbusi va ko'rsatmasi asosida Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali ichida jahon standartlariga mos, zamonaqiy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan yirik jarrohlik majmuasi bonyod etilib, foydalanishga topshirildi. Bu yerda tibbiyotning barcha yo'nalishlarida, jumladan shoshilinch xirurgiya, travmatologiya, ortopediya, ginekologiya, oftalmologiya, neyroquirgiya, kardioxirurgiya bo'yicha yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari bajarilyapti. Xorijilik hamkasbimiz bilan hamkorlikda tajriba almashyapmiz, ulardan o'rganyapmiz, kezi kelganda o'rgatyapmiz. Mana shunday sharoitlarda xizmat qilib, xalqimizga xizmat qilish baxtidan minnatdorligimning cheki-chegarasi yo'q.

Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV,  
«Vatanparvar»



## MUNOSIB HISSA

Davlatimiz rahbari tomonidan joriy yilning 11-oktabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Kuzgi daraxt ekish mavsumi” e'lon qilingan edi. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Mudofaa vazirligi tizimida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, “G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasi hududida o'tkazilgan ko'chat ekish aksiyasida mudofaa vaziri o'rinosari general-major Hamdam Qarshiyev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzaaliyev, Faxriylar ishlari bo'yicha markaziy kengash hamda “Vatan tayanchi” harbiy-vatanparvarlik harakati otryadi a'zolari ishtirok etdi. Bog' hududiga poytaxt iqlimi hisobga olingan holda, soya beradigan va tez o'sadigan manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Ularni sug'orish tizimi doimiy nazorat ostiga olinadigan bo'ldi.

Shuningdek, kun davomida Mudofaa vazirligining Toshkent viloyati Parkent tumanida joylashgan “Qiziltog'” aholi yashash punktidagi yer maydoniga ham mevali va



manzarali daraxtlar ekildi. Bunda sug'orish tizimiga alohida e'tibor qaratib, sun'iy suv rezervuarlari orqali tomchilatib sug'orish tizimi faoliyati ta'minlanmoqda.

Mudofaa vazirligi markaziy apparati, Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi, Toshkent harbiy okrugi hamda shahar mudofaa ishlari boshqarmasi shaxsiy tarkibi, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sportchilarini ham mingdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chati bilan ushbu xayriy tadbiriga munosib ulush qo'shdı.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi mas'ul ofitserlari hamda harbiy xizmatchilari mamlakatimiz ekologiyasining kelajagi uchun ulkan umidlar bilan Nukus garnizonidagi harbiy qism va muassasalar hududlariga nihollarni o'tqazishmoqda. Harbiy qism va muassasalar, harbiy shaharchalar hududlarini ko'kalamzorlashtirish maqsadida Nukus va Urganch garnizonlaridagi harbiy shaharchalarning hududidagi bo'sh yerlarga manzarali daraxtlar ekilmoqda. Harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida 35 ming va Xorazm viloyatida 38 ming ko'chatni shahar va tumanlarda, ovul va qishloqlarning bo'sh turgan yerlarini obodonlashtirish maqsadida ekish belgilangan. Nukus shahridagi Amudaryo mahallasida 5 km.lik yo'lining ikki chetiga harbiy okrug harbiy xizmatchilari, o'mon xo'jaligi hamda shahar hokimligi tomonidan 150 tup manzarali daraxt ko'chati yerga qadolib, ko'chalar obod holatga keltirildi.

Ekologiya va atrof-muhitni yaxshilash, hududlarni obod va ko'rkan qiyofaga keltirish maqsadida o'tkazilayotgan mavsum davomida harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan 30 ming tupdan ziyod daraxt ko'chati ekilishi rejalashtirilgan. Bu ishda aynan o'lkamizning shimoliy hududlari ob-havosi va tashqi muhitiga moslashuvchan, yillar davomida o'sib, yashovchanlik qobiliyatini namoyon etgan, qumli va sho'r yerlarga hayot baxsh eta oladigan daraxtlarning ko'proq ekilishiga ahamiyat qaratilmoqda.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug boshqaruva apparatida ham ko'chat ekish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Ofitserlar, serjantlar va oddiy askarlar birgalikda harbiy okrug hududining obodligi uchun bel bog'lagan. Termiz shahrida bunyod etilayotgan “Vatanparvarlik bog'i”da yurt posbonlari



mevali va manzarali ko'chatlar ekmoqda. Harbiy okrug tasarrufidagi Nuriston, Kakaydi va Termiz garnizonlaridagi harbiy qism harbiy xizmatchilari o'zlariga biriktirilgan hududlarda obodonlashtirish ishlarini amalga oshirmoqda.

Sharqiy harbiy okrug qo'shinlarining barcha harbiy qismlarida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mevali, manzarali daraxt ko'chatlari hamda anvoyi gullar ekish jarayonlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Unda harbiy okrug mas'ul ofitserlari, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari faol ishtirok etyapti. Farg'on, Andijon va Namangan viloyatlaridagi harbiy qismlar tashabbusi bilan aholi yashash punktlari, harbiy shaharchalar, markaziy ko'chalarda hashar tadbirlari tashkil etilib, turli manzarali daraxtlar ekilmoqda.

Markaziy harbiy okrugga qarashli Jizzax garnizonida manzarali va mevali hamda buta ko'chatlarini ekish tadbirlari qizg'in va jadal sur'atda o'tkazilyapti. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi hududida o'tkazilgan ko'chat ekish aksiyasi markaz qo'mondonligi va harbiy xizmatchilarining faoliyi, uyushqoqligini namoyon etdi.

Umuman, mazkur tadbirlarda barcha vazirlik, davlat tashkilotlari hamda idolarlar xodimlari faol qatnashishi loyihaning umummilliy harakatga aylanishida muhim ahamiyatga ega. Shu bois Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ushbu aksiya shiddat bilan davom etmoqda.



# "DEVONU LUG'ATI-T-TURK" DAN

Salmog'i 40 milliondan ortiq kishini qamrab olgan o'zbek tili borgan sari so'zlashuvchilari ko'payib borayotgan tillardan biri sıfatida ko'riladi. So'zlashuvchilarning deyarli to'rtidan uch qismini o'z ichiga olgan ona yurtimizdan tashqari qo'shni Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Qozog'istonda bu tilda so'zlashuvchi yerli turg'unlar 5 millionga yaqin salmoqqa ega. Kungay tomonidan qo'shimiz Afg'onistonda esa 5-6 million kishi o'zbek tilini o'z ona tili deb bilishi aytildi. Shuningdek, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Xitoy va boshqa o'lkalardagi o'zbeklarning soni 1 milliondan oshadi.

# TO BUGUNGACHA

Ming yillar bo'yи "turk tili", "xoqoniya turkchasi", "chig'atoycha", "chig'atoy turkchasi" deb atalgan ushbu til egalari o'z tilini "o'zbekcha", "o'zbek tili" deb yurita boshlaganiga yuz yildan ortiqroq vaqt bo'ldi.

Xo'sh, turkiy tillar orasida deyarli 70-80 million kishi tomonidan so'zlashiladigan Onado'li turkchasidan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi o'zbek tili qaysi tomonlari bilan dunyo tilchilarini o'ziga tortib keladi?

Bu bo'yicha qiziqishlarimiz so'ngida izlanuvchilar o'zbek tilining shu kabi o'zgachaliklariga urq'u bergenini kuzatdik:

o zganchaliklariga urg u bergenini kuzatdik:  
1) deyarli ming yildan beri bu til  
egalari uzluksiz o'laroq yozma adabiy tilni  
ishlatib keladilar. Bundan 800 yilcha burun  
yozilgan "Qissayi Rabg'uzyi" asarini turkiy  
ellar orasida bugungi o'zbek va uygur  
o'quvchisi qiynalmasdan, tushunib o'qishi  
buning kichik bir o'rnatqidir;

2) o'zbek tili turkiy tillarning 3 ta yirik tarmog'i – qarluqcha (o'zbek, uyg'ur), qipchoqcha (qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, qoraqalpoq, no'g'oy, qumiyl, qorachoy-bolqor) va o'g'uzcha (Ozarbayjon va Onado'l turklari, turkman, gagauz) lahjalarning barchasini u yoki bu ko'lampa o'zida qamrab olgan. Ulardan birinchisi o'zbeklarning adabiy tilining negizi – o'zagi o'laroq yurtimiz turg'unlarining deyarli barchasi tomonidan qo'llanilganidek, ikkinchisi – qipchoq lahjasida so'zlashuvchilarning salmog'i viloyatlarimizning bir qanchasida, ayniqsa yuzlab qishloqlarida ancha yuqori ekanı bilinadi. Uchinchi lahja – o'g'uzcha esa Xorazm (vohaning O'zbekiston va Turkmaniston qismalari)da hamda Buxoroning Olot va Qorako'l tumanlarida keng go'llaniladi:

3) dunyoning deyarli barcha ellarida bo'lgani kabi tilning ichki o'zgarishlarini o'zbek tilida kuzatsa bo'ladi. So'zlashuvchilarining sezilarli bir bo'lagi unlilari uyg'unligi (*singarmonizm*)ni saqlaganiga qaramay, fonetikasi anchagini o'zgachalikka ega o'zbek adabiy tili shu tomoni bilan boshqa ko'plab turkiy tillardan ajralib turadi. Ming yillar bo'yи o'zga tillarda so'zlashgan el-uluslar bilan qo'shni va aralash yashash bugungi kun adabiy o'zbekchasiда va ayrim shahar turg'unlarining so'zlashuv tilida o'zgarish yasagan. Bu esa deyarli yuz yildan beri dunyo tilchilarining qiziqishlarini o'ziga tortib keladi:

4) arab va fors tillari bilan qanchalik chuqr aloqaga kirishmasin, ulardan bir necha yuzlab, minglab so'zlar o'zlashtirmasın, o'zbek tili baribir turkiy tillar orasida eski turkiy tub so'zlarni yaxshi saqlagan til o'laroq o'z o'rniiga ega. Unda qarindosh-urug'chilik atamalari, kundalik turmush va uy-ro'zg'or buyumlari, idish-tovoq, ish qurollari kabilardan tashqari ish-harakat bilan bog'liq minglab fe'llarning bugungi kunda ham eski turkcha ko'rinishi saqlanib qolgan.

Yuqorida “qarindosh-urug’chilik bilan bog’liq atamalarni o’zbek tili yaxshi saqlab qolgan”, dedik. “Ota-on”, “aka-uka”, “opa-singil”, “tog’-a-jivan” kabi eng yaqin kishilarimiz uchun qo’llaniladigan, ayrimlarining negizi Turk xoqonligi (552–744) chog’iga, ayrimlari esa Qoraxoniyalar (942–1212) chog’iga borib taqaladigan tub turkiy so’zlarning bugungi turkiy tillarda qanchalik saqlanib qolganiga ko’z yogurtiradigan bo’sak, bu borada ularning bizning tilimiz bilan bellasha olmasligiga guvoh bo’lamiz. Turkiy ellar orasida, masalan, yaqin qo’shnilarimiz – qozoqlar va turkmanlarda ko’plab o’ziga xos qarindosh-urug’chilik atamalari bor, biroq ularda bu kabi so’zlar o’rnini boshqa tillardan o’zlashgan so’zlar yo bo’lmasa, bunday so’zlarning eski turkcha chog’ida – ming yillar burun oz qo’llanilgan turlari ishlatalayotqaniqa ko’zimiz tushadi.

Masalan, turkmanlar "ona"ni "eje", "ota"ni "qaqa" desa, qozoqlar esa ulardan birini ko'pincha "apa", ikkinchisini "ake" deb chaqiradi. Onani "anne", otani "bobo" deydig'an onado'lilik turk qardoshlarimiz "aka-uka", "opa-singil", "tog'a-jivan" so'zlarini "ag'abey-qardosh", "abla-kichik qiz qardosh", "doyi-yiyan" deb birmuncha boshqacharoq ko'rinishda qo'llaydi. Qozoq bovurlarimiz "jiyan" so'zini yaxshi saqlab qolgan bo'lsa-da, "tog'a" o'rniغا mo'g'ulchadan o'zlashgan "nag'ashi" so'zini qo'llashi bizni tong qoldiradi. To'g'ri, o'zbek tilining turli shevalalarida qarindosh-urug'chilik atamalarining ayrimlari birmuncha boshqacharoq ko'rinishda, yuqorida qardosh ellar o'rnatgida keltirilgan so'zlarga o'xshashroq ko'rinishdagi so'zlar ishlatalidi.

Qizig'i shundaki, "ota-onा", "aka-uka", "opa-singil", "tog'a-jiyan" kabi eski turkiy so'zlar shu yoki shunga yaqin ko'rinishlarda birgina biz, o'zbeklarda emas, turkiy bo'limgan el-uluslarda ham bir necha yuz yillardan beri qo'llanib kelinadi. Qo'shni tojikcha va Pokistonning urdu tili buning yorqin o'nragidir. Bundan 500 yil burun Boburiylar tomonidan Hind o'lkasiga turkiy qo'shinlar bilan birga olib borilgan bu so'zlar bugungacha o'sha yurtlarda saqlanib qolishi o'z-o'zidan bo'limgan. Yuz yillar bo'yи ona yurtdan uzoqda, bir-biriga yot ko'plab tillarda so'zlashuvchi bir o'ttam – muhitda qolgan eldoshalrimizning o'z urug'-urpog'iga meros goldirgan so'zlaridi bu!

Yuqorida urg'u berilganidek, turkiy tillar orasida o'zbek tili o'zga tillardan ko'plab so'z o'zlashtirgan tildir. Biroq bu degani tilimiz o'zligini, ona so'zlarini yo'qotdi, degani emas. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, ayrim turkiy tillarda o'zligini yo'qotib, biror yozma asar tugul, biror bir ertak yozishga yoki o'z urpoqlariga qo'shiq yo bo'lmasa, cho'pchak aytib berishga yaramay qolgan tillar ham uchraydi. Nima bo'lsa-da, o'zbek tilida boshqa tillardan o'tgan deyarli har bir so'z va atamaning ikki-uchtalab tengi – mugobili borligi

kishini quvontiradi. Buni O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida uchraydigan 1,5 mingta so'zdan 80–90 foizi, "Devonu lug'ati-t-turk"dagi so'zlarning esa undan ham ko'proq ulushi unchalik o'zgarishga uchramasdan saqlanib kelayotgani ko'rsatib turibdi.

Bundan deyarli ming yil oldin – XI  
yuzyillikda qog'ozga tushirilgan va  
negizi eng eski chog'larga taqaluvchi  
so'zlarni o'zida qamrab olgan Mahmud  
Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asari  
bugungi turkiy tillar o'tmishini yorituvchi  
o'xhashi yo'q yozma manba o'laroq  
izlanuvchilarni o'ziga tortib keladi. Buni  
keyingi yuz yilga yaqin vaqt kesimida  
"Devon"ning nemischa, Onado'l turkchasi,  
o'zbekcha, inglizcha, uyg'urcha, forscha,  
qozoqcha, ruscha, qirg'izcha, xitoycha  
kabi o'nlab tillarga birin-ketin o'girilib  
chop etilishi va asar bilan bog'liq yuzlab  
yirik izlanishlar, minglab maqolalar nashr  
qilinishining o'ziyoq ko'satib turibdi.

Mahmud Koshg'ariy asaridan o'r'in olgan deyarli 8 000 ga yaqin turkiy so'z bugungi turkiy tillarda u yoki bu ko'rinishda saqlanib qolgan bo'lib, ularning sezilarli bir bo'lagi o'zbek tilida bundan ming yil oldin qanday qo'llanilgan bo'lsa, unchalik o'zgarmasdan shundayligicha ishlatib kelinadi. Qizig'i shundaki, asarda turkiy tillarning o'zak adabiy tili sifatida tilga olingan "xoqoniya turkchasi"ga tegishli so'zlarning ko'pchiligi bugungi o'zbek va uyg'ur tillarida, Koshg'ariy tomonidan "turklarning yirik bir tarmog'i" deb eslab o'tilgan "o'g'uz turklari" bilan bog'liq so'zlar Onado'li turkchasi, ozarbayjoncha, turkmancha, gagauzcha va o'zbek tilining Xorazm – o'g'uz tarmog'iда keng ko'lamda saqlanib qolgani ko'zga tashlanadi.

Shunga o'xshash "Devon"da chigil (*qarluq, yag'mo, arg'u*), o'g'uzlar singari turkiylarning ko'p sonli bir tarmog'i o'laroq eslatilgan qipchoqlarning bugungi izdoshlari – qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, qoraqlapoq, no'g'oy, qumiq, qorachoy-bolqor, qaraim va qirimchaq tillaridagi so'zlarining ko'pchiligi "Devon"dagi so'zlar bilan deyarli birday. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy qog'ozga tushirgan minglab so'zlarga turkiy tillarning boshqa tarmoqlari – oltoy, xakas, tuva, shor, teleut, saxa (*yoqut*) tillarida duch kelsak, eski turkiy so'zlarining sezilarli bir bo'lagini esa Erondag'i xalachcha, qashqaycha, Xitoydag'i sariq uyg'urcha va salorcha kabi turkiy tillarda uchratamiz.

Yaqin yillarda "Devon" ustida birmuncha izlanishlar olib borib, undagi so'zlarning bugungi turkiy tillardan qay birida qay yo'sinda saqlanib qolganiga to'xtalanimizda shunga amin bo'liddiki, minglab so'zlarning bиргина tashqi ko'rinishi emas, anglam (*ma'no*) bo'yicha ham o'zbek tilida ancha yaxshi saqlanganiga ko'zimiz tushdi. Qizig'i shundaki, bиргина so'zlar emas, balki eski turk jamiyatiga xos ko'plab an'analarning qanday bo'lsa,

shunday ko'rinishda o'zbek jamiyatida saqlanib qolgani ko'zni quvontiradi. Misol keltiradigan bo'lsak, Mahmud Koshg'ariy "isriq – isriq; bolalarning boshlariga toshadigan yaralarni yoki ko'z tegishidan bolalarni davolaganda aytiladigan so'z; tutatiladi va bolaning yuziga tutunini "isriq-isriq" ("e jin, es-hushingni yo'qot!") deb tutiladi" deb yozgan bo'lib, qozoqlar "adiraspan", Onado'l turklari esa "yuzarlik" deb ishlatacidan "isriq" so'zi va u bilan bog'liq an'analar bugungi kunda ko'proq o'zbeklarda uchraydi. O'g'uz turklari "isriq" tutatish bilan bog'liq irim-sirimlarni deyarli unutgan bo'lsa, o'zbeklar xoh yirik shaharlarda yashasin, xoh chekka qishloqlarda bu an'anani "Devon"da qanday keltirilgan bo'lsa, shu ko'rinishda qo'llab keladi.

Shunga o'xshash qiziq bir misol. Mahmud Koshg'ariy "tilku – tulki. Bu so'z bilan qiz boladan kinoya qilinadi. Biron xotin tug'ganda doyadan "tilkumu tug'di azu bo'rimu – tulki tug'dimi yoki bo'rimi?" deb so'raladi. Ya'ni "qizmi yoki o'g'ilmi?" demakdir. Qizlaraldoqchi hamda yalinchqoq bo'lganlari uchun tulkiga, o'g'il bolalar botirlikka asosan bo'rige o'xshatiladi", deydi. Bu an'ana turkiylarning ko'pchiligidagi, ayniqsa qozoq, tatar, ozarbayjon va Onado'li turklarida deyarli saqlanib qolmagan, biroq o'zbeklarning barchasi uy-ichi va ko'cha-ko'yda bo'lsin, tug'uruqxonadan ko'zi yorigan qarindoshini ko'rgani borganda, "Bo'rimi, tulki?" deb so'rashi odat tusiga kirgan.

TO'XTAM

Oradan deyarli ming yil o'tgan  
bo'lishiga qaramay, Mahmud  
Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk"  
asarida uchrab, kundalik turmushda  
qo'llaniladigan ko'plab so'zlarning o'zbek  
tilida deyarli qanday bo'lsa, shunday  
ko'rinishda saqlanib qolgani olqishlarga  
arzigulik. To'g'ri, ayrim so'zlar bugun  
kundalik turmushda qo'llanilmasligi  
yoki ularning or'nida yot so'zlarning  
ishlatilayotgan hollari ko'p. Shunga  
qaramay, "Devon"da keltirilgan bir necha  
minglab so'zlar bugungacha yetib kelgani  
turkiy tillarning, ayniqsa o'zbek tilining  
qanchalik kuchga, teran ildizga ega ekanini  
ko'rsatadi.

Ming yillardan beri turli tillarda so'zlashuvchi el-uluslar bilan qo'shni yoki aralash yashab, ularning tillaridan ko'plab so'zlar o'zlashtirganiga qaramay, o'zbek tilining "Devon"dagi so'zlarni eng ko'p saqlagan turkiy tillardan biri o'laroq bilinishi o'z-o'zidan bo'lmay, bu tutum ming yillar kesimida elimizdan Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Bobur, Abdurauf Fitrat, Cho'lpion, Abdulla Qodiriy singari til jonkuyarları chiqqanligi va chiqayotganligi bilan ochiqlanadi.

# BOBUR ARMIYASIDAGI KREATIVLIK

Zahiriddin Muhammad Bobur odamlar ruhiyatini, ayniqsa o'z yaqinlari, askarlar psixologiyasini naqadar chucher bilgani ko'p jihatdan uning harbiy g'alabalarini ta'minlagan edi. Masalan, "Boburnoma"ning 1526-yil voqealari tasvirlangan bobida hind rojasi Rano Sango bilan bo'lgan jang tasviriga katta o'rin ajratilgan.

Rano Sango qo'shini Bobur qo'shinidan son jihatidan ancha ustun, yaxshiroq qurollangandi. Buning ustiga hind qo'shinida ko'plab jang fillari bor edi. Bu holat jangdan oldin Bobur askarlarining ruhi tushib ketishiga sabab bo'ladi. Kitobda qo'shining shu paytdagi ruhiyati quyidagicha tavsiflanadi: "Ushbu ayyomda o'tgan vaqoedin nechukkum mazkur bo'ldi, uluq-kichikta dag'dag'a va taraddud ko'p edi. Hech kimdin mardona so'z va dalirona ra'y eshitilmas edi. Hikoyat deguchi vuzaoning va viloyat teguchi umaroning na so'zlar mardona edi, na tadbirdi, na o'zlar sohib himmatona edi".

Ruhi bunday tushkun holdagi qo'shin bilan dushmanga qarshi jang qilib bo'imasligi, jang qilinsa ham, uni yengib bo'imasligini yaxshi tushungan Bobur askarlarning ruhini ko'tarish yo'llini izlay boshlaysidi va bir tadbir topadi. U butun qo'shinni to'plab, shunday murojaat qiladi: "Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichqusidur va har kishikim, tiriklik manziliga kelibtur, oxir dunyo g'amxonasidin kechqusidur. Yomon ot bila tirligandin yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq. Tengri taolo bu nav' saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyb aylabtur. O'lgan shahid, o'turgan g'oz. Barcha Tengrining kalomi birla ont ichmakh kerakkim, hech kim bu qitoldin yuz yondurur xayol qilmag'ay, to badandin joni ayrimmag'uncha bu muhoraba va muqataladin ayrimmag'ay".

Boburning bu otashin nutqidan ruhlangan beklar va askarlar qo'lgan mushafni olib, g'alabagacha jang qilishga qasam ichadi. Bobur qo'llagan bu tadbir bir tomonidan beklar va askarlarning ruhini ko'tarib yuborgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan uning xabari dushman askarlariga yetib borgach, ular orasida sarosima va tushkunlik boshlanadi. Bu haqda Boburning o'zi shunday yozadi: "Tavr tadbiro edi, yovuqtin, yiroqtin do'st, dushman ko'rgali, eshitgali yaxshi bo'ldi".

Qo'llangan tadbir ko'p jihatdan Bobur qo'shini g'alabasi uchun asos yaratdi. Ikki qo'shin orasida boshlangan jang juda ayovsiz va beshafqat bo'ldi. Bu jangda Bobur to'lg'ama usulini qo'lladi. Ba'zi tarixchilar bu usulni tarixda birinch bo'lib Bobur qo'lladi, desalar ham, aslida u dastavval Chingizxon tomonidan, keyinchalik Amir Temur tomonidan ham bir necha marta qo'llangan. Lekin Bobur jangda bu usulni qo'llashni juda takomillashtirdi va harbiy san'at darajasiga ko'tardi. Boburgacha to'lg'aman qo'llagan qo'shin taktik ustunlikni qo'liga kiritgan bo'lsa, Bobur bu usuldan faqat taktik maqsadda emas, ruhiy jihatdan ham ustunlikni qo'iga kiritish uchun mohirona foydalandi.

To'lg'aman qo'llash uchun Turdika, Malik Qosim Bobo, Rustam turkman va Nizomiddin Sultan Muhammad baxshi tayin qilinadi. Jang eng qizigan paytda yuqorida ismlari zikr etilgan

beklar boschchiligidagi askarlar dushman qo'shinlarini aylanib o'tib, orqadan hujum qiladi. Dushman sarosimaga tushadi. Shu payt Boburning o'zi boshqargan g'ul old tomonidan hujum qiladi. Dushman qo'shinlarini orasidagi sarosima yana ham kuchayadi. Endi bu qo'shining o'ng qanot va so'l qanoti, juvong'or va burong'ori aralash-quralash bo'lib ketadi va uni boshqarishga imkon qolmaydi. Son jihatdan oz bo'lgan Bobur qo'shini esa jangni ruhiy ko'tarinkilik bilan olib borar edi. Bobur yozishicha, askarlar "shunday shavq bilan urush qillardilarki, yugori olam farishtalaridan ularga tahsin nidosi yetardi".

Rano Sango bilan jangda Bobur qo'llagan tadbirlar uning faqat alohida individrlar psixologiyasini emas, hozirgi davr tili bilan aytak, guruhlar, ijtimoiy qatlamlar psixologiyasi yoki sotsial psixologiyani ham chucher bilganini ko'rsatadi. Bu jangdan oldin Bobur qo'shining tushkun ruhiyatda bo'lgani va uni ko'tarish uchun qanday tadbirlar qo'llangan yuqorida aytildi. O'sha tushkunlikka Rano Sangoning miqdor va qulol-yarog' jihatidan ancha ustun qo'shinga ega bo'lishi sabab edi. Bundan tashqari, ba'zi g'alamislardan qo'shin orasida turli noxush gaplar va mishmishlar tarqatib, askarlar ruhini yana ham tushirishga uringan edi. O'shandaylardan biri Muhammad Sharif degan shaxs bo'lib, u munajjimlik qilardi. U askarlar orasida "Hozir Mirrix yulduzi g'arb tomonda turibdi. Kimki g'arb tomonda turib urushsa, u mag'lub bo'ladi", deb gap tarqatadi. Bobur qo'shini g'arbdan, Sango qo'shini esa sharqda joylashgan edi. Munajjimning bu "bashorati" askarlar ruhiga salbiy ta'sir qiladi. Buni zukkolik bilan ilg'ab olgan Bobur qarshi choralar qo'llaydi.

Munajjimning gaplari to'g'risida "Boburnoma"da shunday deyiladi: "Muhammad Sharif munajjim shumunafas, agarchi manga ayтур yorusi yo'q edi, har kimga yo'liqsa, mubolag'alar bilan ayтур edikim: "Bu ayyomda Mirrix g'arb saridur, har kim bu tarafdirin urushsa mag'lub bo'lur". Mundoq shumunafas nekim surdi, bedil elning ko'nglini ko'prak sindurdi. Aning bu parishon so'zlariga go'sh qilmay, qilur ishlarimizni tigilmay urush ishida bajid va masof qilmoqqa mustaid bo'lduk".

Bobur qo'llagan tadbirlar, askarlar ruhini ko'tarishga yo'naltirilgan choralar, uning ulkan harbiy mahorati munajjimning bashoratlarni puchga chiqardi. Bobur Hindistonga 11,5-12 ming kishilik qo'shin bilan borgan edi. Hindistonda u olib borgan dastlabki katta janglardan biri Dehli yaqinida Ibrohim Lo'diy qo'shini bilan bo'lgan. Ibrohim Lo'diy qo'shiningda 100 mingdan ortiq askar, mingdan ortiq jang fili bor edi. Lekin tarix guvohlik berishicha, har doim ham jangning natijasini askarlarning miqdori, hatto jang fillari ham hal qila olmaydi. Aksincha, g'alaba taqdiri ko'proq qo'shin ruhiyatiga, sarkarda mahorati va tadbirkorligiga bog'liq bo'ladi. Dehli yaqinidagi jang esa bunga yaqqol misoldir.



Ibrohim Lo'diy katta iqtisodiy va harbiy qudratga ega edi. Bu haqda Bobur shunday yozadi: "G'anining hozir cherikini bir lak chenarlar edi. O'zining va umarosining mingikki mingga yovuq fili bor derlar edi. Ikki otasidin qolg'on xazina xud naqd iligida edi".

Raqibining nafaqat boyligi va qudratli qo'shini, balki ruhiyatini ham chucher tahlil qilgan Bobur uni yengish mumkin, degan xulosaga keladi. Chunki Ibrohim Lo'diy tabiatan juda xasis bo'lib, atrofidagilar, lashkarboshilar, askarlar undan norozi edilar. Xasislikdan tashqari Ibrohim Lo'diy tadbirsiz, shijoatsiz va g'ayratsiz edi. Buni chucher ilg'agan Bobur shunday yozadi: "Tengri taolo rost kelturdi, ne yigitini rozi qila oldi, ne xazinasini ulasha oldi. Qaydin yigitini rizo qila olurkim, tabiatiga imsoz ko'p g'olib edi... Ne kelishi saranjomliq edi, ne turishi, ne yugurishi ehtigomliq edi, ne urushi".

Chucher harbiy tahlil ruhiy tahlil bilan qo'shilgach, Bobur Lo'diyga qarshi jang boshlashga qaror qiladi. Holbuki, uning qo'shiningda barcha askarlar va xizmatchilarni qo'shib hisoblaganda 12 ming kishi bor edi.



"Navkar va savdar va chokar jami cherik bila bo'lg'onlar 12 ming kishi qalamga keldi".

Shunday qilib, Bobur 10 mingdan ortiqroq askar bilan Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik qo'shining tor-mor keltirdi, juda ko'p o'ja va asirlarni qo'lg'a kiritdi, Boburning ismi yoniga buyuk sarkarda sifatini qo'shish qanchalik to'g'ri ekanini shu jang ham tasdiqlaydi.

Bobur o'z qo'shining 8-10 baravar ortiq bo'lgan Ibrohim Lo'diy qo'shini bilan jang boshlar ekan, to'lg'ama usulidan juda ustalik bilan foydalanadi. Qo'shing jangda hozir bo'lganda uzoqda Ibrohim Lo'diyning askarlar ko'rindi. Bu holat "Boburnoma"da quyidagicha ta'riflanadi: "Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtikim ko'rundi, hech yerda darang qilmay, tez-o'q keladur edi. Ilgarak kela bizning qoramizkim, alarg'a ko'rundi, bu tartib va yasolnikim, mulohaza qildilar, hasr bo'lub, turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib, ne tura oldi, ne burung'idek kela oldi".

Iqtibosdan ko'rinib turganidek, Bobur qo'shining o'ziga xos saflanishi, jangga shay turishi Lo'diyiga va uning askarlariga qattiq ta'sir qiladi. Ular na turishini, na orqaga yurishini bilmay qoladilar. Jang boshlanmay turib, Lo'diy qo'shining vujudga kelgan bu ruhiy sarosimalik jangning boshlanishi va borishiga katta ta'sir qiladi.

Jang uzoqqa cho'zilmay, uning taqdiri peshingacha hal bo'ldi. "Oftob bir naya bo'yi chiqib edikim, urush angizi bo'ldi. Kun tushgacha zarb urush edi. Kun tush bo'la a'do mag'lub va maqbur va ahibus mutbahij va masrur bo'ldilar. Tengri taolo fazlu karami bila mundoq dushvori ishni bizga oson qildi va andoq qalin cherikni yarim kunda yer bilan yakson qildi".

Jahon harbiy tarixida bunday janglar juda kam bo'lgan. Dushmanga nisbatan bir necha baravar kam qo'shin bilan jangga kirib, bir necha soat ichida bunday porloq g'alabaga erishgan sarkardalar harbiy tarix sahifalarida juda kam uchraydi. Hattoki Iskandar Zulqarnayn ham qo'shiningda 5-6 baravar ortiq qo'shining yenggan, amma 10-12 baravar ortiq qo'shining bilan urushmagan ham. Bunday g'alabaning o'xhashi na Yuliy Sezar, na Napoleon, na Chingizxon faoliyatida uchraydi. Bobur Mirzo jangga 11-12 ming kishilik qo'shin bilan kirib, dushmanga bir necha o'n ming kishilik talafot yetkazadi. Bu haqda "Boburnoma"da quyidagilarni o'qiyimiz: "Besh-olti ming kishi Ibrohimning yaqinida bir yerda o'q qatlq'a yetibdurlar. O'zga har yerda o'lganlarni bu ma'rakada o'n besh-o'n olti ming taxmin qilur eduk. So'ngra Ograga kelganda Hinduston eli taqrividan andoq ma'lum bo'ldikim, 40-50 ming kishi bu ma'rakada o'lgan ekandur".

Bunday porloq g'alabaning sababi, avvalo, Boburning yuksak harbiy mahoratida. Lekin harbiy mahorat tarkibiga askarlar va dushman ruhiyatini juda chucher tushunish ham kirishini unutmaslik kerak. Bobur esa askarlar va raqib ruhiyatini, hozirgi til bilan aytganda, harbiy psixologiyani juda chucher bilar edi. Uning olib borgan janglari, "Boburnoma"da askarlar, beklar, dushman askarlar ruhiyatining juda nozik, ko'z ilg'amas jihatlarini ham tahlil qilishi shundan guvohlik beradi. Yuqorida aytiganiday, u askarlar psixologiyasini juda yaxshi bilgan. Bundan tashqari, uning o'zi ham ruhan tetik va barkamol, jisman va axloqan baquvvat edi. Bunga bir necha misollarda ishonch hosil qilish mumkin. **Ruhiy va axloqiy jihatdan uning pok va barkamol ekani shunda ko'rindiki, u eng og'ir sharoitda askarlarga mardlik, chidam va matonat namunasini ko'rsatardi.** Bu esa askarlarda unga nisbatan hurmat va muhabbat hissini uyg'otardi.

**Mansur SHEROV,**  
**Chirchiq olyi tank**  
**qo'mondonlik-muhandislik**  
**bilim yurti katta o'qituvchisi**

# UCHLI MUHIM OMIL

Davlatchilik asoslarining mustahkam bo'lishi, mamlakat kuch-qudratining asosi hamma davrlarda Qurolli Kuchlarning salohiyatiga bog'liq bo'lgan. Aflatun, Arastu, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarining davlatchilikka oid qarashlarida qudratli qo'shin, askarlarning jangvar ruhi masalasi doim yetakchi o'rnlarni egallagan.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonida qudratli lashkarni mamlakat to'kisligining asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatadi.

Qudratli armiya deganda faqatgina zamonaviy qurol-yarog'lar, qo'shin soni kabilar tushunilmaydi. **Qo'shining kuch-qudratini belgilovchi eng birinchi omil askarlarning yuqori jangvar ruhi hisoblanadi. Bunga quyidagi sifatlarni paydo qilish orqali erishiladi:**

- vatanparvarlik;
- yuksak ma'naviyat;
- moddiy ta'minot.

**Vatanparvarlik** insonda bolalikdan shakllantiriladi. Avval ota-onalar, bobuvilar tomonidan beriladigan o'gitlar, keyin mакtabda olinadigan ta'lim jarayonida bu ruh shakllantiriladi. Bu jarayonda xalq og'zaki ijodi namunalari, badiiy adabiyot va san'atning roli beqiyos. "Algomish", "Go'ro'g'li", "To'maris", "Shiroq" kabi doston, rivoyatlar; "Iliada", "Odisseya", "Shohnoma" kabi yozma adabiyot namunalari bilan tanishgan, ularni yurakdan his qilgan avlod kuchli ma'naviy salohiyatga, vatanparvarlik ruhiga ega bo'ladi. Ushbu omilning muhimligini yaxshi idrok

etgan hukumatimiz mustaqillik yillarda milliy armiyamizning vatanparvarlik ruhini oshirish maqsadida harbiy ta'lim va muddatli harbiy xizmat dasturiga ma'naviyat darslari, kitobxonlik tadbirlarini qo'shganligi juda muhimdir. Shuningdek, kitobxonlik bilan birgalikda Vatan tarixini chuqur o'rganish orqali ham yuksak vatanparvarlikni shakllantirish mumkin.

**Yuksak ma'naviyat** ham jangvar ruhning ajralmas bo'lagidir. O'z-o'zidan bu omil yuqorida aytilgan vatanparvarlik bilan chambarchas bog'liq. Yuksak ma'naviyat vatanparvarlikning amaldagi isboti vazifasini bajaradi. Shu o'rinda e'tirof etish kerakki, ajdodlarimizning mardlik va jasoratlari bilan faxrlanish, har gapda Vatanni sevish haqida og'iz ko'pirtish bilan ruh yuksalmaydi. Aksincha, ularning boy merosini chuqur o'rganib, sadoqatni ular kabi amalda isbot qilish lozim. **Amalda ko'rsatilmagan sadoqat xuddi sun'iy gulga o'xshaydi: nomi, shakli bor-u, ifori, qadri yo'q.** Chinakam ma'naviyatli inson esa o'z sadoqatini, Vatan oldidagi burchini amalda namoyon qiladi. Bu borada Vatanimiz himoyachilari o'sib kelayotgan avlod uchun namuna bo'lib kelmoqda. Uzoqqa bormay, yaqin o'tmishtagi jasur yigitlarimizning jasoratlarini eslab o'tishning o'zi kifoya. Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida bo'lib o'tgan jangvar harakatlarda xalqaro terrorchilar tahdidini qaytargan o'nlab harbiyalarimiz – vatandoshlarimizning qahramonliklari mana shu sadoqat va yuksak ma'naviyatning yorqin dalilidir. Harbiy okruglar va qismlarda ana shu qahramonlarga bag'ishlangan yodgorliklar bugun viloyatimiz yoshlari

uchun ibrat namunasi o'laroq ularning vatanparvarlik tarbiyasida, ma'naviyatini boyitishda muhim rol o'yanoqda.

**Qo'shining moddiy ta'minoti** masalasi ham jangvar ruhni yuksaltirishga sezilarli ta'sir etishi ayon haqiqat. Temur bobomiz: "**Askari qudratli mamlakat boy bo'lur, boy mamlakatning askari qudratli bo'lur**", deya bejiz aytмаган. Tariximizning achchiq haqiqati bo'lmish O'rta Osiyo xonliklarining bosib olinishida mavjud qo'shinglarning ta'minoti zamondan anche orqada qolganligi eng asosiy faktorlardan biri bo'lgan. Harbiylar orasida "**O'z armiyangni boqmasang, vaqt kelib birovlarining armiyasini boqasan**", degan juda chuqur mazmunga ega ibora ko'p ishlataladi. Shundan kelib chiqqan holda, mustaqillik yillarda harbiylarning moddiy ta'minotini yaxshilash, armiyaning harbiy-texnik bazasini takomillashtirish yo'lida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bu esa mamlakatimiz xavfsizligi, yurtimiz tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, **milliy armiyamizning jangvar ruhi yuqori bo'lishi**, bu kasbni tanlaganlar unga o'zini qalban baxshida etganligi yurtimiz buguni va kelajagi ishonchli qo'llarda ekanligini bildiradi.

**Nigora EXANOVA,**  
**Dang'ara tumanidagi**  
**12-umumta'lim maktabi ona tili va**  
**adabiyot fani o'qituvchisi**

## KELAJAGIMIZ EGALARI

# YOSHLAR HARBIYLIK KASBIGA O'NALTIRILMOQDA

Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlaridagi umumta'lim maktabi o'quvchilari va mahallalardagi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, o'zaro madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish, sport musobaqalariga keng jalg etish orqali bo'sh vaqlarini mazmunli o'tkazish, halol, jismonan baquvvat, bilimli, keng dunyoqarashli, sog'lam turmush tarziga rioya qiladigan barkamol avlod tarbiyalash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.



Ana shunday tadbir – yoshlarni harbiylik kasbiga yo'naltirish respublikamizda ilk marotaba Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz, Kakaydi va Xayrobod garnizonlarida joylashgan harbiy qismlarda shahar va tumanlarda istiqomat qilayotgan yoshlar ishtirotida bo'lib o'tmoqda.

Yoshlarni harbiylik kasbiga yo'naltirish maqsadida umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari va mahallalarda istiqomat qilayotgan uyushmagan yoshlar orasidan oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ishtiyoqini bildirganlar bilan harbiy qismlarda repetitorlik mashg'ulotlarini o'tash yo'lga qo'yildi.

Ushbu mashg'ulotlarga yoshlar shahar va tuman mudofaa ishlari bo'limlari tomonidan saralab olinib, so'ngra suhbat asosida harbiy qismga taklif qilinadi hamda ularga malakali o'qituvchi va harbiy ustozlar tomonidan matematika, fizika, ona tili, adabiyot va tarix fanlaridan beg'araz repetitorlik kurslari ishlari tashkil etilmoqda.



**III darajali serjant Akbar AHMEDOV**  
*Termiz garnizoni*



III darajali sejant Olim BERDYEV

Mudofaa vazirligi tizimidagi tibbiyot dargohlarida ko'plab hamshiralar faoliyat yuritadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Vatan posbonlarining salomatligiga mas'ul bo'lgan kichik tibbiyot xodimlarining bilim va malakasi hamma vaqt e'tiborda. Har yili an'anaviy ravishda o'tkazib kelinayotgan "Eng ilg'or hamshira" tanlovi ham ularning kasbiy mahoratini yuzaga chiqaruvchi, yetuk mutaxassislarni saralovchi tadbirdan biridir.

# HAR ISHDA ILG'OR HAMSHIRALAR



Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitalida "Eng ilg'or hamshira" ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. Unda tanlovning harbiy okruglar miyosida g'oliblikni qo'lg'a kiritgan olti nafar hamshira qiz qatnashdi.

Ko'rik-tanloving ochilish marosimida mudofaa vazirining o'rinosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, keng jamoatchilik vakillari, shifokorlar va harbiy xizmatchilar ishtirok etdi. Unda so'zga chiqqan general-mayor Hamdam Qarshiyev har yili bosqichma-bosqich o'tkazib kelinayotgan mazkur tanlov hamshiralarning kasbiy bilimlarini yanada oshiruvchi, ko'nikma va malakalarini sayqallovchi bellashuv ekanligi bilan qimmatli ahamiyat kasb etishini ta'kidladi va barcha ishtirokchilarga omad yor bo'lishini tiladi.

Bellashuvda ishtirokchilar umumiylar beshta shart bo'yicha o'zaro kuch sinashdi. Ularning ishtirokini malakali mutaxassislardan iborat hakamlar hay'ati baholab bordi. Tanlov shartlariga to'xtaladigan bo'lsak, dastlabki shart tanishtiruv deb nomlandi. Ushbu shartda hamshiralar she'r, qo'shiq hamda sahma ko'rinishlari orqali o'zlari va faoliyat yuritayotgan tibbiyot muassasasi haqida ma'lumot berdilar. Qizlardagi san'atkorlik mahorati va notiqlik san'ati hech bir

tomoshabinni bee'tibor qoldirmadi: zal gulduros qarsaklarga to'ldi. Maxsus tayyorgarlik bo'yicha test savollarini yechish, tibbiy va ma'nnaviy-ma'rifiy bilimlar bo'yicha blits savol-javoblar, vaziyatli masalalar asosida kechiktirib bo'lmash tez tibbiy yordam ko'rsatish hamda erkin mavzu shartlari ham qizg'in munozaralarga boy tarzda o'tdi. Bir so'z bilan aytganda, ko'rik-tanlov mobaynida hamshiralar o'zlarining qanchalik epchil, chaqqon, o'z sohalarining qay darajada bilimdoni ekanliklarini namoyish qildi. Bu, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarda ko'zga yaqqol tashlandi. Bunda hamshiralar bajarayotgan har bir ish malakali ekspertlar tomonidan nazorat qilindi. Yana bir muhim jihat, ishtirokchilarning barcha



shartlardagi faolligi va o'z sohasining har tomonlama bilimdoni ekanligi tanlovning qiziqarli o'tishiga zamin yaratdi. Shuning uchun ham ularning har bir chiqishi hakamlar hay'atining yuksak e'tirofiga sazovor bo'ldi.

– Aslida harbiy tibbiyot dargohlarida xizmat qilayotgan hamshiralar o'z kasbining mohir ustasi bo'lishlari lozim, – deydi Mudofaa vazirligi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis, hakamlar hay'ati a'zosini Zulfiya Mansurova. – Shuning uchun har yili o'tkazib kelinayotgan ushbu tanlov ularning mahoratlarini yangi-yangi yo'nalishlarda sinovdan o'tkazishiga zamin yaratmoqda. Natijalar yomon emas. Ko'rinib

turbdiki, kichik tibbiyot xodimlari uchun bunday bellashuvlarning ahamiyati katta.

Tanlov nihoyasida yakuniy natijalar e'lon qilindi. Unga ko'ra, 1-o'rinni Farg'ona harbiy gospitali hamshirasi Madina Davlatova qo'lg'a kiritdi. Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali hamshirasi Sevara Bahodirova 2-o'rinni sohibasi bo'ldi. Qarshi harbiy gospitali hamshirasi Shahnoza Jumayeva esa 3-o'runga loyiq topildi.

G'oliblar diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

– Qo'lg'a kiritgan muvaffaqiyatimni iqtidorimga, bilimimga berilgan yuksak baho deb bilaman. Bundan juda xursandman, – deydi tanlov g'olibini Madina Davlatova. – Bellashuvga astoydil tayyorgarlik ko'rib kelgandim. Ishtirokimga hakamlar hay'atining yuqori baho bergani men uchun sharaf bo'lish bilan birga zimmanga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Ishonch bilan aytishim mumkinki, mazkur tanlovda qatnashib, yanada ko'p bilim va ko'nikmaga ega bo'ldim, bilmaganrimni o'rgandim. Shu orqali tajribam oshdi. Men bir narsaga aminman – inson intilsa, izlansa, albatta oldiga qo'ygan maqsadiga yetadi. Menga bildirilgan ishonchga munosib bo'lishga harakat qilaman. O'z ustimda ishlayman, mahoratimni oshirib boraman.

**Podpolkovnik  
Gulnora HOJIMURODOVA**

Qadim va ulug' yurt, muazzam Turkiston tuproqlari ohanrabo kabitidir. Necha ming yillik tarixning guvohligiga ko'ra, qalbi iymon, haqqoniyat va go'zallik bilan butun bo'lganlar muhabbat bilan, nafsiq qul bo'lib, yuragini jaholat chirmab olganlar ochko'zlik bilan hamisha unga talpingan. Aleksandr Makedonskiy davridan to XX asr so'ngigacha ham yorug', ham qorong'i kunlarni boshidan kechirgan bu go'zal o'lka kechmishini mukammal bitishning imkonini bormikan? Bunga qay bir bitikchining quvvati, umri yetar?

TAMADDUN BESHIGI –  
TURKISTON

Chor Rossiysi bosqinining so'ngagi yillari va komunistlар hukmronligining ilk davridan boshlab xorijiy sayyoхlar va olimlarning qadami qadim Turkiston tuproqlaridan uzildi. Bu holat O'zbekiston mustaqillikka erishguniga qadar davom etdi. Salkam 100 yillik davrda Turon hududlarida iqtisodiy, madaniy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarda o'sish kuzatilmadi. Iстиqlol tufayli Turkistonning ko'hna darvozalari ochilib, jahoning el-elatlari bilan teng hamkorliklar boshlandi. Xossatan, bu O'zbekiston-Fransiya aloqalarida ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

O'zbekiston-Fransiya munosabatlari o'ziga xos tarixa ega bo'lib, ikki davlat o'tasidagi aloqalar Amir Temur davridan boshlanadi, desak, xato bo'imas. Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan maktubida shunday so'zlar bor: "...siz savdogarlarizingni biz tomonlarga yuborsangiz, toki biz ularni qizg'in, barcha izzatlarini o'niga qo'yib kutib olaylik. Bizning savdogarlarimiz Sizning tomonaga borsalar va ularga ham shunday izzat-kromlar ko'satsangiz. Mayli, ular hech qanday xavf-xatarsiz, to'siqlarsiz yo'l yursinlar. Dunyoni savdogarlar farovon qiladilar, degan naqlini inkor qilish befoyda".

Quyida berilayotgan tarixiy ma'lumotlar Temur davriga taalluqli emas. Undan 500 yil keyingi, ya'ni XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkistonda bo'lgan fransuz sayyoхlar, tadqiqotchi-olimlar faoliyati, ularning asarlari haqidadir.

**"Antik tamaddun beshigi bo'lgan Turkiston tuprog'ida asrlar silsilasida qancha el-elatlari yashab o'tmadi: skiflar, saklar, massagetlar, forslar, Aleksandr jangchilari, xunlar, turkiylar, arablar, mo'g'ullar, o'zbeklar, ruslar. Xalqlarning bu chorrahasida dunyodagi eng qadimgi dinlar tug'ilib, voyaga yetdi".**


Bu e'tirof fransuz olimi Jozef Antuan Kastanyega tegishli. 1875-yilda Fransiyaning kichik Gaylak shahrida tug'ilgan J.A. Kastanyeden oldin ham bir necha fransuz olimlari Turkistonda bo'lgan edi. Ular – Sharl Ejen Uyfalvi, Gabriel Bonvalo, Hyugo Krafft, Jan Shafanjon, G. Kasho, E. Blan va boshqalar. Bu olimlarning Turkistonga safari dunyoni bo'lib olish, ojiz el-elatlarni bo'ysundirish, mustamlaka etish ayni avjiga ko'tarilgan paytalar uyushtirilgan. O'sha yillarda Turkiston hududlarida Amerika, Shvetsiya, Vengriya, Ispaniya, Britaniya sayyoх va olimlarini ham uchratish mumkin edi.

# TURKISTONDA

NAT  
T  
BO'LGAN



SHARL EJEN  
UYFALVI



HYUGO KRAFFT

Asli vengriyalik Sharl Ejen Uyfalvining Markaziy Osiyoga ilmiy ekspeditsiyasi Fransiya Maorif vazirligi tomonidan 1876-yilda uyuştilirildi. Uning tarkibida Uyfalvining rafiqasi Mariya de Uyfalvi Burdon, Gabriel Bonvalo va Giyom Kapyu kabi tadqiqotchilar bor edi. Turkistonda ularga general-gubernator fon Kaufman buyrug'i bilan M. Vilkins, M. Myuller, N. Prjevalskiy, A. Kuropatkin hamrohlilik qiladi. Ekspeditsiyaning asosiy maqsadi antropologik, ethnologik va geografik tadqiqotlar olib borish edi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida Farg'onan vodiysida o'ndan ortiq inson tipi o'rganilib, vodiyning ethnologik xaritasi va Markaziy Osiyodagi etnik tiplar atlasi yaratildi. Shu bilan birga, mahally aholi turmush tarzi ham o'rganildi. Bu haqda ekspeditsiya davom etib turgan paytdayoq muktub ko'rinishidagi hisobotlar Sankt-Peterburg va Parija jo'natilgan, ilmiy jurnallarda nashr qilingan, olimlar tomonidan tahlil etilgan.

Samarqandda bo'lgan Uyfalvi unga quyidagicha ta'rif beradi: "Samarqanda yetmay, yaqindagina qazishma ishlari olib borilgan Afrosiyob xarobalari ko'rinaldi. Qadimgi qabriston bilan tutashgan katta nishablikda Temuriyarning poytaxti joylashgan. Shaharga kirish joyida Bibi-Xonim maydoni, u yerda madrasa xarobalari ko'zga tashlanadi. Ruslar bu xarobalarni devor bilan o'rabi, ruscha uslubdagisi ustunli ayvondan iborat do'konchalar qurgan. Chap tomonidan esa yetti gumbazdan iborat bo'lgan Shohi-Zinda"...

Tadqiqotchi sayyoх Uyfalvi hisobotlarda ruslarning Turkistondagi bosqinchilik yurishlariga tayyorgarligi, o'lkanning bosib olinishi haqida ham ma'lumotlar bor.

**"Dastlab jilovlab olish va savdoni yo'Iga qo'yish, keyin strategik chiziqni belgilab, Marvni egallash va Turkistonni Erondan ajratib turadigan tabiiy chegaralarni yo'Iga kiritish nazarda tutilgan edi"**, deb yozadi u. Shuningdek, ruslarning keyingi yuz yilda Fransiyadan uch barobar katta hududga ega bo'lgani hamda inglizlarning Qandahor va Hirotni egallash rejalari haqida ma'lumot beradi. Agar yana ilmiy ekspeditsiya uyuştiliriladigan bo'lsa, Pomir va Qorategindan to Badaxshongacha bo'lgan hududlarni o'rganish, Balxgacha borib, u yerdagи xarobalardan qimmatbahо arxeologik yodgorliklarni topish fikrida ekanligini aytib, vatandoshlariga sayohat qilish, bu yerdagи muhim joylar va yo'llarni o'rganishni tavsiya etadi.

Ekspeditsiyaning ilmiy tadqiqotlari 1878-1880-yillarda Parijda "Rossiya, Sibir va Turkistondagi fransuz ilmiy ekspeditsiyasi" nomi bilan olti jilda nashr qilinadi. Bir jilda Farg'onan va G'ulja hududlari tavsiflangan bo'lsa, yana birida Sirdaryo havzalari, Toshkent, Samarqand, Yettiuv va Sharqiy Sibir hududlari bayoni, boshqasida Ural boshqirdlari va boshqalar haqidagi antropologik, ethnologik va geografik ma'lumotlar joy olgan.



Oradan necha yillar o'tib, yana bir fransuz sayohatchisi va fotografi Hyugo Krafft Turkistonga keladi. 1853-yilda Parijda badavlat vino savdogarları oilasida tug'ilgan Krafft Kavkaz va Turkistonda 1898-yil oktabridan 1899-yil iyuningacha bo'ladi.

Sankt-Peterburgdan maxsus ruxsatnomaga olib, poyezdda 15 kun yurgan Krafft 1898-yil qish avvalida Samarqandga yetib keladi, u yerdan Andijonga, Xitoy chegarasigacha boradi. Turkistonda bir necha oy bo'lgan Krafft "Baland tog'lar va gullagan vodiylar, qadimi obidalarning ulug'vorligi, liboslarning favqulodda rang-barangligi va odamlarning tabiiy go'zalligiga maftun bo'ldim, bu mening hech bir Sharq mamlakatlari uchratmagan taassurotlarim", deb yozadi.

1901-yil dekabrida Parijda "Xalq an'anaları" jurnalida "Turkiston ertak va masallari"ni, 1902-yilda "Rossiya Turkistoni orqali" kitobini 270 ta rasm, jumladan fotosuratlar, gravyuralar va xaritalar bilan nashr ettiradi. Uning bu ishi Parij geografiya jamiyatiga va Fransiya akademiyasining mukofotlariga sazovor bo'ladi.

**O'ziga xos kitob-albomda Turkiston tasvirlari yetti bobga ajratilgan:**

1. Rossianing yangi shaharlari.
2. Qadimgi mahally shaharlari.
3. Samarqandning buyuk obidalari.
4. Qishloq manzaralari.
5. Musulmon uylari.
6. Aholi.
7. Kundalik hayot, bayramlar.

Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Xo'jand kabi qadimi shaharlari yonida yangi rus shaharlari qurilmoqda. Buxorodan 12 kilometr uzoqda joylashgan Yangi Buxoro (Kogon) ko'chalari huvvullagan, o'simliklari siyrak bo'lgan sokin va zerikari shahar, deydi Krafft.

**Turkiston shaharlari haqida shunday yozadi:** "Maydonlar va xiyobonlar ikki qator chiroylar daraxtlar bilan o'rangan. Shaharlari ko'chalari quyuq o'rmon yo'llariga o'xshaydi, biroq bu yerda daraxtlar odamlar tomonidan ekilgan. Yangi shaharlari arxitekturasi boy emas, oddiy, pastak, oqlangan g'ishtiلى uylar, tomlari tekis. Samarqandning iqlimi, butun shaharni egallagan havosi huzurbaxsh. Bozor kunlariida ruslar, askarlar, salsa o'ragan otliqlar, arava tortgan eshaklar,



# FRANSUZLAR



JOZEF ANTUAN  
KASTANYE

Hyugo Krafft yurtiga qaytganda uning izidan yana bir fransuz Turkistonda bo'ladi. U Tuluzada ulg'aygan fransuz tili o'qituvchisi Jozef Antuan Kastanye edi. 1899-yilning bahorida Rossiya kelgan J. Kastanye dastlab Kavkaz gimnaziyalarda ishlendi. 1912-yilda sog'lig'i yomonlashgani va bot kasalligidan qiynalayotgani uchun Toshkentga ko'chib kelib, o'rta maxsus maktabda fransuz tili o'qituvchisi va sinf rahbari bo'lib, shuningdek Toshkent harbiy maktabida xizmat qila boshlaydi.

20 yildan ortiq vaqt chor Rossiyasi hududida yashagan va hukumat xizmatchisi sifatidagi faoliyatida imperiyaning Markazi Osiyodagi mustamlakalarda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatdan juda yaxshi xabardor bo'lgan arxeolog-o'lakashunos, etnograf, tilshunos olim Jozef Kastanyening tarixiy-ilmiy asarlarida muhim ma'lumotlar bor. Uning o'lkamizdagagi faoliyati aynan Turkistonning butunlay istilo etilishi davriga to'g'ri keldi.

1895-yilda imperator Nikolay II ning farmoniga binoan, Toshkentda "Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi" tashkil etiladi. To'garak qadimiy obidalarni o'rganish, ularni tavsiflash, o'lka arxeologik xaritasini tuzish kabi maqsadlarni ko'zlagan edi. Aslida

yuklari bor tuyalar... Piyoda va otliqlarning poyoni yo'q go'zal paradiga guvoh bo'lsan.

Turkistonning shahar va qishloqlari doimo toza saqlanadi. Bu yerda Sharqda keng tarqalgan axlat tog'larini hech qachon ko'rmaysiz. Har bir hovli ayollar va erkaklar uchun alohida ikki qismga bo'lingan. Asosiy hovlida molxona va otxona yoki hech bo'lmaganda ot bog'langan ustun bor.

Birinchi hovlidan kichik eshik orqali ikkinchi hovliga o'tildi. Bu yerdagi uylarga begonalar, shu jumladan xizmatchilarining kirishi taqilanganadi. Yosh bolalarni hamma erkaliydi, ularga g'amxo'rlik qilish akalari yoki opalariga ishonib topshirilgan. Ular G'arb mamlakatlari bolalariga qaraganda kamroq shovqin qiladilar".

Krafft uy jihozlarini va ta'mirlanishi, taxmon va devorlardagi naqshinkor tokchalar haqida yozar ekan, har bi xonadon tokchalaridagi metall bezakli qutilar yoki arab yozuvidagi kitoblar – qahramonlik dostonlari, xalq ertaklari, she'rlar to'plamlariga e'tibor qaratadi. Har bir xonadonda qishda o'rnatiladigan sandalni mehr bilan eslaydi: "Oh, men choy va shirinliklar bilan boshlangan do'stona uchrashuvlar paytida sandal atrofida ko'p o'tirganman!"

Hyugo Krafftning "Rossiya Turkistoni orqali" kitobida vatandoshlarimizning bundan yuz yil naridagi turmush tarzi, to'y va aza marosimlari, milliy an'analari haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar bor. Ularning aksariyati suratlar bilan dalilangan.



Jahon tarixida birortayam xalq va elatlar shon-shuhrat va jangovar fathlar bobida turklar bilan bellasha olmaydilar.

Bu xalqlarning buyuk tarixini so'zlab beradi oladigan durustroq tarixchilari yo'q xolos.

Turklarning qanchadan qancha o'lmas ishlari tarix qa'riga ko'milib ketgan.

Turklar shu darajada ko'p ulug' saltanatlar tuzganlarki, bizlar hatto ularni bilmaymiz ham.

Bu xalq har kunlik ishi bo'lmish – qahramonlik, jangovarlik amali bilan shug'ullanishda davom etadi va u o'zining yengilmas ekanligiga shubha qilmagan holda, uni tarannum qilishiga vaqt ham bo'lmagan ko'rindi.

Sharl Lui Monteskye,  
fransuz ma'rifatchisi

yondashuvini alohida e'tirof etgan bo'lsa, M. Masson uni "Qadimi O'rta Osiyo bilan bog'liq bo'lgan hamma narsalarning telbalarcha muxlisi", deydi. Sovet davri tarixchilari esa uni "Fransiyaning ikkinchi byurosiga tegishli yoki ingliz razvedka xizmatining josuslardan biri", degan.

Rossiyada 1917-yil oktabridagi inqilob tufayli J. Kastanye oilasi bilan Fransiyaga qaytishga qaror qildi. O'sha kezlerda u Rossiya fuqaroligidan voz kechdi. Lekin birmuncha vaqt Fransiya Tashqi ishlar vazirligining ba'zi buyruqlarini bajarib yurdi. Shu bilan birga, o'lka arxeologik xaritasini tuzish bo'yicha ishlarini davom ettirdi. Turkiston Respublikasining qadimiy yodgorliklari va san'atini himoya qilish komissiyasining arxeologiya bo'limini tuzdi. 1918-yilda Favqulodda komissiya (Chk) J. Kastanyeni sovetlarga qarshi fitnada qatnashganlikda guman qilib, avval uning ustidan kuzatuv o'rnatadi, so'ngra 1918-yil sentabrida hibsga olishga tayyoragarlik ko'rishni boshlaydi. Hibsga olish xavfi haqida ogohlantirilgan Kastanye 1918-yil kuzida Farg'ona tog'lارida yashirinishga muvaffaq bo'lib va u yerda 19 oy qolib ketadi. Yaxshiki, uning rafiqasi va qizi 1918-yilda Turkistondan chiqib ketgan edi. 1920-yil sentabr oyida u sobiq harbiy asirlar bilan birga Fransiyaga jo'nab ketishga muvaffaq bo'lib.

Fransiyaga kelganidan so'ng Kastanye Fransiya Tashqi ishlar vazirligida tarjimon, xorijiy matbuotni o'rganish xizmatida va Rossiya matbuoti tahliili byulletenining muharriri sifatida ishladi. Fransiyada J. Kastanye O'rta Osiyoning tarixi va zamonaviy siyosiy tarixiga bag'ishlangan bir qator kitoblarini nashr ettirdi. Ana shunday asarlaridan biri "Bosmachilar" nomli kitobi bo'lib, unda sovetlar tomonidan "Bosmachilik harakati" deb atalgan Markazi Osiyo xalqlarining milliy ozodlik harakatining vujudga kelish sabablari adolatli va xolis tasvirlangan. Ushbu asar yurtimizda sovetlarga qarshi olib borilgan milliy ozodlik harakati tarixini o'rganishdagi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Kastanye Turkiston tarixiga bag'ishlangan asarlarida o'zi yashagan bu o'lkan kuchli muhabbat bilan tasvirlaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, sovet tarixshunosligida uning asarlari "imperializmga nihoyatda moyil", deb topiladi. Chunki sovet maxsus xizmatlari arxeolog olimga "imperialistik kuchlarning agenti" va Markazi Osiyoda bolsheviklar hukmronligiga qarshi kurashning ilhomlantiruvchisi va tashkilotchilaridan biri sifatida qarar edi. 1921-yildan J. Kastanye Parij antropologik jamiyatida muxbir bo'lib ishlay boshladi. 1925-yil sentabrida "Faxriy legion kavaleri" unvoniga sazovor bo'ldi.

**Fransiyada XX asr boshlarigacha Turkiston tarixi, madaniyati, siyosati, turmush tarziga oid 30 ga yaqin nomdagi kitob chop etilgan.**

to'garagiga, bir yildan so'ng Rossiya imperatorligi huzuridagi geografiya jamiyatining Turkiston bo'limiga a'zo bo'ldi. Turkiston xalq muzeyi va kutubxonasida kuzatuv qo'mitasining a'zosi bo'lgan J. Kastanye yangi muzey kolleksiyalarini tuzish bilan ham shug'ullandi. U tadqiqotlari natijalarini Lui Massinon bosh muharrirligida fransuz tilida chop etiladigan nufuzli "Revue du Monde musulman" jurnalida muntazam ravishda nashr etib bordi.

Sharqshunos V. Bartold Kastanyening o'sha davr havaskor arxeologlari uchun kamdan kam uchraydigan arxeologik materiallarni yig'ishdagi qat'iy ilmiy



## "Bir tilim qovun"

Kitob do'konlarini kezishni yoqtiraman. Poytaxtdagi "Navro'z" bozori yaqinida yashayman. Bozor va atrofida beshta kitob do'koni bor. Orasida "Nur kitoblar" ajralib turadi. Boshqalariga qaraganda kengishroq, sotuvchisining kitob o'qishi bilinib turadi. Sotuvchining kitob o'qish-o'qimasligini bilishdan osoni yo'q. Mayli, gap sotuvchilar haqida emas. Har bir kitob do'konida o'tirishga qulayroq kursi bo'lishi kerak, aslida. Kichikroq, pastak bo'lsa ham zarar qilmaydi. Poytaxtga mos ke-eeng, yorug', ulkan kitob do'konlari bo'lsa-yu, ichiga kirib, vaqt qanday o'tganini bilmay qolsang.

Bu kitob do'konlariga ikki kishi kirsa, tang-u torligi bilinib qoladi, havo yetmaydigandek, kishining kitoblarni varaqlab ko'rish ishtyoqi so'nib, tezroq tashqariga chiqqisi keladi. Yana bittasida tashqaridan turib savdolashishingiz kerak. Menimcha, kanselyariya mollari sotish uchun "maskirovka" bo'lsa kerak. Chunki bir taxlam kitob qo'yilgan, necha gradus qiyshaying farqsiz, baribir kitoblar nomlarini o'qiy olmaysiz.

Shunday bo'lsa ham, vaqt-vaqt bilan bu do'konlarga kirib kitoblar xarid qilaman. Borligidan sevinaman. Keyingi paytlarda tarjima asarlar ko'paygan. Kiyimlar urfga kirgani kabi ayrim asarlar ham urfdadek taassurot qoldiradi. Ayniqsa, turk yozuvchilarining asarları. Hayratlanarli, ko'pi o'rtamiyona asarlar. Demak, talabgorlar bor, o'quvchilar bo'lgan. Ularni kim tanityapti, qiziqtrishni, o'quvchilar topishni qanday uddalayapti? Qariyb besh yildan beri "Keling, kitob o'qiyim!" sahifasi mavjud. O'quvchilar soni... Rostini aytasam, buni bilmayman. Ba'zan ijtimoiy tarmoqlarda ular shilganini ko'rsam, mehnatimiz samarasiz emasligidan mamnun bo'laman.

Bugun o'quvchilarimizga Mamatqul Hazratqulov asarlarini tavsiya qilamiz. Bu inson nomi ko'pchilikka yaxshi tanish. Yozuvchining "Cho'li Iroq" hikoyasini o'n ikki yoshimda o'qigan edim. Unchalik tushunmaganman. Zerikarli, degan xulosaga kelganman. Biroq vaqt o'tib, yangilishganimni his qildim. Hikoya insonning

o'zi bilan o'zi qoladigan pallasini "Cho'li Iroq" kuyiga hamohang tarzda ifodalagan. Bir kuy ta'sirida olamingiz ostin-ustun bo'lishi mumkin ekan.

Siz ham "Cho'li Iroq"ni tinglaganmisiz? Bilaman, eshitgansiz, ammo tinglamagansiz.

"Cho'li Iroq" dan o'qiyimiz: "Sato torlari ingrar, goh hazin, goh baland pardada nola qilardi. Goho nafasi jim bo'lib qolar, lekin orqada - xuddi tog'lar aks-sado qaytarganday uning nolasi zirillab turardi. Musiqa go'yo asta-sekin kishi yuragiga kirib borar, uning pardasini hozir... hozir yirtib yuborguday bo'ldi".

Muhabbat o'zini tamoman yo'qotib qo'yan, yuragi yonib ado bo'layotgan sham misoli titrayotganini sezmasdi. U hali umrida hech ko'rмаган joylarni hozir shu tobda xayol ko'zları bilan yaqqol ko'rib turardi. Ana poyonsiz sahro, qum, qum... Issiqliq oyoq kuyadi. Karvon ketidan borayotgan o'n yetti yashar sohibjamol qizning madori qurigan. Tili tanglayiga yopishadi. U bor kuchini to'plab, "Suv" demoqchi bo'ladi, lekin tili aylanmaydi, u juda og'ir, xuddi shishib ketganday. Oldinda ketayotgan nortuya bo'ynidagi qo'ng'iroqning mayin, yurakni ezuvchi sasi keladi quloqqa. Sahro - non yopishdan oldin oqartirilgan tandir.

O, sho'rlik qiz! Qanday jafolar kutmoqda seni. Madorsizlik, tashnalik qizning xayollarini alg'ov-dalg'ov qilib yuboradi.

"Qachon yetamiz? Qayerga boramiz? Mushtipar onam, dasti kalta otam! Qaylarda qoldingiz?"

Kitoblar shu qadar ko'p. Xuddi chamanzorda qaysi chechakni tanlashni bilmay qolgan odamdek his qilaman o'zimni. Aslida kitoblarni ko'rganda, biroz hovliqib ketadigan odatim ham bor. Yaqinda eski gazetalarni varaqlay turib "Bir tilim qovun" hikoyasiga ko'zim tushib qoldi. Negadir shu hikoyani o'qimagan ekanman. Qanday ko'zdan qochirgan bo'lsam? O'qidim-u, sahifamizda taniqli adib asarlaridan tavsija qilmaganimiz yodimga tushdi va aziz o'quvchilarimizga ham ilindim.

Siz Mamatqul Hazratqulovning O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist ekanligini bilsangiz kerak. Meni esa jurnalistlar ijodi ayricha qiziqtiradi. Buning sabablari haqida ilgari bir necha marta yozganman. Takrorlashdan naf yo'q.

"Bir tilim qovun" oddiy bir hikoya. Ilm odami bo'lgan o'g'il, keksa ona, onaning so'nggi kunlari... Hammasi shu. Agar sarguzashttalab bo'lsangiz, xuddi shunday xulosaga kelishingiz aniq: hammasi shu. Biroq...

Bu hikoyada tanish manzaralar, tanish tuyg'ular biram ko'p. Ixtiyorsiz xayollarga tolasiz. Onasi hayot bo'lgan insonlar uchun hech narsani anglatmas, ammo shu bir tilim qovun ko'p narsalarni yodimga soldi. Toshkent bilan Qashqadaryo orasini, musofirlik tashvishlarini, sog'inch azoblarini, ilinchak bir Onani eslatdi.

Onam. Ovqatidagi chumchuqning boshidek go'shtni ilinib mening kosamga solardi. "O'zingiz yemaysizmi?" "Yo'q, sen ye, shu joyini yaxshi ko'rasan". Qishki qora tarvuzning o'ttasidagi mag'zini ham menga: "Ol, sen ye, shu joyini yaxshi ko'rasan". Onalar shunday bo'ladi: go'sht yegisi kelmaydi, suvi qochgan qattiq nonlarni ham yeyaveradi, tansiq mevani yaxshi ko'rmaydi, eski kalishda ham yuraveradi... Qanday xudbinlik. Yillar berisida turib, o'zim ona bo'lganimdan keyin ko'zlarim yarq etib ochilganday bo'ladi. Onalarning ham yegisi kelar ekan-ku?! Onalari bilan yetaklashib yurgan dugonalarni ko'rganda yuragimni bir achchiq armon tilib o'tadi: hech qachon "nima yegingiz kelyapti", deb so'ramagan ekanman.

Kitoblar shunday quadratli bir kuch. O'qisangiz o'z-o'zingizga savollar berdiradi, xatolaringizni ko'rsatadi, sizni yaxshiroq bo'lishga undaydi.

"Bir tilim qovun" dan o'qiyimiz: "... Bir kuni choshgohda onasi ancha tetik ko'rindi, hatto bir-ikki hazil-huzul ham qildi. Yo'ldoshga yuzlandi:

- Bir tilimgina qovun topilarmikan, bolam, - dedi.  
- Qovun yegim kep ketdi shu topda.

Bu gapdan opasi ham, Yo'ldosh ham suyundi. Onasida ishtaha paydo bo'layotganday tuyuldi. Chunki kasal bo'lganidan beri (bir oydan oshdi) tayinli ovqat yegani yo'q.

- Bo'lmasa men shaharga borib kelay, aka.  
- Mashina yo'q-ku...  
- Yo'ga chiqsam, yo'lovchi mashina topilar, nima bo'lsayam bitta qovun topib kelmasam bo'lmaydi. Ozib-yozib bir narsa so'radilar, shuni topib bermas... Keyin armonda qolamiz, aka.

Yo'ldosh shunday deb yo'lg'a tushdi. Katta yo'lda bir mashina bilan gaplashib, shahardan ikkita qovun olib keldi. Qovunning bittasini so'yib, chinni laganga chiroylı qilib terdi. Xursand bo'lib onasining oldiga ko'tarib kirdi.

- Enajon, mana qovun. Oling, juda shirin ekan, oling, yeng.

Yo'ldosh onasining yelkasidan ko'tardi, opasi orqasiga ikkita yostiq qo'ydi. Yo'ldosh laganni yaqin olib bordi. Onaizor deyarli qoq suyak bo'lib qolgan, tomirlari bo'rtib turgan qo'llari bilan bir bo'lak qovunni oldi. Ikki marta mayda-mayda tishladi. Qolganini laganga tashlab, boshini yostiqqa qo'ydi".

Bu hikoyani o'qing. Hamma narsa tiriklikka yarashishini, yaxshiliklar tiriklarga qilinishi kerakligini anglatadigan So'zdan bahramand bo'ling.

Inson ulg'aygani sari qiziqishlari ham o'zgarib boradi. Qachonlardir sevgi qissalarini sevib o'qiganmiz, sevgi qissalarini bitilgan kitoblarni izlaganmiz. Bora-bora bu go'zal tuyg'uga aqlni ko'proq aralashtirib, undan uzoqlashamiz, ba'zan tanqidiy qaraymiz, biz bu tuyg'uga hech asir bo'lmagandek tutamiz, o'zni. Ammo nima bo'lganida ham, adabiyotning eng sara durdonalari, eng sara asarları sevgi haqidagilaridir!

Sevgi hikoyalari har doim ham baxtli yakun topavermaydi. Ehtimol uning qimmati, ohanrabosi ham shundadir. Adibning "Sevgi sozi" hikoyasi ham muhabbat degan mangu qo'shiq haqida. Buni hikoyaning nomi ham aytilib turibdi. So'zimizni hikoyadan bir parcha keltirish bilan shu yerda muxtar qilamiz: "Kelajak, shirin orzular haqida emas, yoshi bir joyga borgan kampirlar kabi o'tmishi, yaqin o'tmishi borasida o'y surardi. Bu o'ylar orasidan nurli tarafini topolmas, bir-biridan battar dilini xufton etardi. O'ylagan sari bir haqiqatga ishonchi komil bo'lib boradi: g'isht qolipdan ko'chgan, ko'ngil piyolasi darz ketgan. Siniq piyola kimga kerak!"

Axir odam bolasi, ayniqsa, yigit umrida loaqal bir odamni baxtiyor qilishi kerak-ku. Birovni baxtsiz, badnom qilish oson, bu har qanday ahmoqning ham qo'lidan keladi. Ammo o'zgalarga baxt ato etish... Buni hammayam eplayolmaydi..."

Huzurli mutolaalar tilagi bilan,



# SHIKOYAT (PROTEST) BERISH IMKONIYATLARI

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-sentabrdagi "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliliqi va adolatlilikini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunu qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra, Jinoyat-protsessual kodeksi hukmlarning, ajrimlarning, qarorlarning qonuniyligi, asosliliqi va adolatlilikini tekshirishning umumiyl shartlari (55-bob), sudning hukmi, ajrimi ustidan taftish tartibida shikoyat (protest) berish (562-bob) boblari bilan to'ldirildi.

Qonunga muvofiq, sud hukmlari, ajrimlari, qarorlarning qonuniyligi, asosliliqi va adolatlilikni apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida tekshirishli mumkin. Ya'n birinchi instansiya sudining hukmlari, ajrimlari ustidan dastlab apellyatsiya tartibida, agar apellyatsiya tartibida ko'rilmagan bo'lsa, qonuniy kuchga kirgan hukmlar, ajrimlar ustidan kassatsiya tartibida shikoyat yo protest berish, shuningdek, taftish tartibida takroran shikoyat yo protest bildirish yuzasidan iltimosnomaga bilan murojaat qilish imkoniyatini yaratildi.

Sud jinoyat ishini apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida ko'rishda shikoyat yoki protest vajlari bilan chegaralanmaydi va ishni barcha mahkumlarga, shu jumladan, tegishli shikoyatni bermagan shaxslarga yoki o'ziga nisbatan shikoyat (protest) berilmagan mahkumlarga nisbatan ham to'la hajmda tekshiradi. Mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili birinchi instansiya sudining apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish tartibida ko'rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek, apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish instansiysi sudlarining hukmlari, ajrimlari ustidan taftish tartibida shikoyat berishga haqlidir.

Agar shikoyatda yoki protestda og'irroq jinoyat to'g'risidagi qonunni qo'llash zarurligi haqidagi, jazoni kuchaytirish to'g'risidagi

yoki mahkumning ahvoli yomonlashuviga olib keladigan boshqa o'zgarishlari haqidagi masala qo'yilgan bo'lsa, sudning ayblov hukmini yoxud ajrimini taftish tartibida qayta ko'rib chiqishga faqat u qonuniy kuchga kirganidan keyin bir yil ichida yo'l qo'yiladi.

Qonun bilan shuningdek, hukm ustidan apellyatsiya shikoyatlarini (*protestlarini*) berish muddatlari 20 sutkadan 10 sutkaga qisqartirildi. Shuningdek, sud hukmi, ajrimi qarorini ijo etish chog'ida yuzaga kelgan masalalarni hal qilish to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat berish va xususiy protest bildirish tartibi belgilandi. Bundan tashqari, jinoyat ishini kassatsiya va taftish tartibida ko'rish natijalari yuzasidan yangi oqlov yoki ayblov hukmi chiqarish vakolatlari berildi. Bu, o'z navbatida, sud qarorlarini bekor qilib, yangidan ko'rish uchun quyi instansiya sudlariga qaytarish amaliyotiga chek qo'yadi va fuqarolar ortiqcha ovora bo'lisingning oldini oladi. Ayblovni to'ldirish va sudlanuvchiga nisbatan ayblovni og'irroq'i bilan almashtirish, shuningdek, javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligi aniqlangan holatlar bundan mustasno. Mana shu yangilanishlar natijasida sudda har bir ish bo'yicha yakunni xulosaga kelishga erishiladi.

Qonunga kiritilgan ushbu o'zgartirishlarga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudida, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarida, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida taftish tartibida jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining, hududiy harbiy sudlarning apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek ushbu sudlar tomonidan birinchi instansiya tariqasida ko'rigan ishlari bo'yicha apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida chiqarilgan hukmlari va ajrimlari.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan taftish tartibida chiqarilgan hukmlari, ajrimlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida taftish tartibida takroran ko'rib chiqilishi mumkin.

Qonun 2024-yil 1-yanvar kunidan kuchga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, yangi qonun fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish va jamiyatda adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, sud qarorlarini qayta ko'rishda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, fuqarolarning shikoyat qilish huquqidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga va noroziliklarning oldini olishga, shuningdek, ortiqcha sarsongarchiliklarga yo'l qo'ymaslikka zamin yaratadi.

I. O'TALOV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy sudi sudyasining  
katta yordamchisi

## ✓ ARMIYA PROKURORI

# HUQUQBUZARLIKlar PROFILAKTIKASI

Chirchiq harbiy prokuraturasi tomonidan nazorat hududida joylashgan harbiy qismi va muassasalarda jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot-profilaktika tadbirlari muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Shunday tadbirdarning navbatdagisi Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy qismalarning birida "Armiya prokurori kuni" doirasida tashkil etildi.

Unda Chirchiq harbiy prokurori adliya podpolkovnigi Qobil Anarboev tomonidan huquqbazarliklarning oldini olishda faoliyot ko'rsatish va bunda e'tibor qaratiladigan masalalar tushuntirilib, harbiy intizom va huquq-tartibotni mustahkamlash yuzasidan tavsiyalar berildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniy mazmun-mohiyati haqida so'z yuritildi.

Tadbir davomida ishtirokchilar mavzuga va faoliyatga doir masalalar yuzasidan o'zlarini qiziqtirgan savollariga atroficha javob oldilar.

Adliya podpolkovnigi  
Sultanmurat KALENDEROV,  
Chirchiq harbiy prokurorining katta yordamchisi





# Yangi qonun muhokamasida



Qurolli Kuchlar  
akademiyasining  
magistratura tinglevchilarini  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisiga Qonunchilik  
palatasiga tashrif  
buyurishdi.

Dastlab Qonunchilik palatasi Mudofaa  
va xavfsizlik qo'mitasi faoliyatini bilan  
yaqindan tanishgan tinglevchilar shu  
kuni "Harbiy xizmatchilar maqomi va  
ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi  
O'zbekiston Respublikasi qonuni  
loyihasining muhokamasida ishtirok  
etishdi.

Muhokama avvalida Mudofaa vazirligi  
Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bosh  
boshqarmasi boshlig'i polkovnik Hasan  
Xalilov so'zga chiqdi. U mazkur qonun  
loyihasi yuzasidan axborot berar ekan,

harbiy xizmatchilar maqomi – harbiy  
xizmatchilar uchun davlat tomonidan  
kafolatlangan huquqlar, erkinliklar, qonun  
hujjatlari bilan belgilangan imtiyozlar va  
cheklovlari, majburiyatlar va javobgarliklar  
majmuyi ekanligini e'tirof etdi.

Ushbu qonunning maqsadi esa harbiy  
xizmat nazarda tutilgan vazirlik va idoralar,  
boshsa organlar va tashkilotlar harbiy  
xizmatchilarining huquqlari, majburiyatlar,  
javobgarligi va harbiy xizmatni o'tash  
bilan bog'liq cheklovlarni, shuningdek

harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatdan  
bo'shatilgan fuqarolar hamda ularning  
oila a'zolarini huquqiy va ijtimoiy himoya  
qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga  
solishdan iborat ekanligini ta'kidladi.

Muhokamaga qo'yilgan qonun loyihasi  
bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar va  
takliflar e'tiborsiz qoldirilmadi.

T. BURXANOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
dotsenti

## ✓ IBRAT

Bolalarning murg'ak qalbiga  
hech bir narsa ibratdekkuchli  
ta'sir etmaydi va barcha ibratlar  
ichida ota-onada ibratidan  
kuchliroq va mustahkamroq  
o'rinnadigan ta'limgo'q.  
Shunday ekan, oilalarda sog'lom  
psixologik muhitni yaratish, yosh  
avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir  
etadigan zararli odatlarning  
ildizini quritish lozim.

Yurtimizda barchaga o'rnak bo'ladigan namunali  
oilalar juda ko'p. Lekin shu bilan bir qatorda shunday  
oilalar borki, ularning xatti-harakatlari jamiyatga, o'sib-  
ulg'ayib borayotgan yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir  
etadi.

O'zbek mentalitetida otalar oilaboshi hisoblanadi.  
Ularning qilayotgan xatti-harakatlardan farzandlari  
ibrat oladi. Navnihol quyosha intilib yashaydi.  
"Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan xalq maqoli  
bejiz aytilmagan. Zero ota-onada yosh bolaning ideali  
hisoblanadi. Farzand ota-onasining xatti-harakatlarini  
butun boricha o'zlashtirib, tashqi sharoitlarda:  
muktabda, ko'chada, do'stlari davrasida ularni namoyon  
eta boshlaydi. Agar oilada sog'lom muhit barqaror  
bo'lsa yaxshi, lekin oiladagi muhit, turmush tarzi salbiy  
bo'lsa, bu katta fojiga olib kelishi mumkin.

Farzand jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish uchun  
oilasidan madad va ruhiy quvvat oladi. Agarda u buni  
oiladan olmasa, tabiiyki ko'chadan izlaydi. Uyiga kam  
keladigan, ko'proq vaqtini ko'chada o'tkazadigan, o'zi  
bilan bir xil fikrlaydigan odamlar davrasida bo'lishni  
ko'proq istab qoladi. Bunday vaziyatda bolaga yaxshi  
niyatli, ilm-ma'rifatli odamlar uchraydi deb hech kim  
kafolat berolmaydi. Natijada esa bola tarbiyasida  
salbiy o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. Unda deviant  
xulq-atvor shakllanadi. O'zidan kattalarni mensimaslik,  
spiritli ichimliklarga ruju qo'yish, o'g'rilik, talonchilik  
kabi jamiyat bo'g'inlarining og'riqli nuqtalaridan biri  
bo'lismish salbiy illatlar paydo bo'ladi. Bunday illatlar  
ega bo'lgan bola ertaga qanday inson bo'lib yetishadi,  
jamiyat taraqqiyotiga qanday hissa qo'shadi? Bu kabi  
savollarga javob berishga ojiz qolasan kishi. Sababi  
yomonlikdan boshqa narsa qo'lidan kelmaydigan  
odamdan yomonlikdan boshqa yana nimani kutish  
mumkin.

Donishmandlar kishi umr bo'yi o'zi yashaydigan  
yaxshilik va yomonliklarning qariyb 90 foizi aynan  
bolalikning ilk davrida ongiga singishini tan olishadi.  
Bugungi bolakayning kelajakda qanday inson bo'lishi

## Tarbiyada samarali usullar



ko'p jihatdan bolalik davrining qanday o'tganiga  
bog'liqidir.

Shunday ekan, bolalarda oqko'ngillik,  
adolatparvarlik, haqgo'ylik, rostgo'ylik kabi  
fazilatlarni shakllantirish uchun ularga yolg'on  
gapirmaslik, savollariga to'g'ri, jiddiy javob berish,  
yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni  
shakllantirish lozim. Shuningdek, bolalarni  
yoshligidan ozodalikka rioxha qilishga o'rgatish  
kerak. Tozalikka rioxha qilish faqat bolaning  
sog'lig'i saqlash uchungina emas, balki uni  
kelajakda ham pokiza bo'lishining omilidir.

Bola tarbiyasida quyidagi omillar yaxshi  
samara beradi: namuna ko'ssatish, yaxshi xulq-  
atvorga o'rgatish, odatlantirish, o'rnini kelganda  
nasihat qilish, tarbiya berish, unga munosabatni  
o'zgartirish, ishortirish, rag'batlantirish, kerak  
bo'lsa o'z o'rnida qoralash kabi usullardir.

Tarbiyada maqsadning aniqligi muhim o'rinn  
tutadi, maqsadimiz barkamol avlodni tarbiyalash  
uni Vatanga muhabbat ruhida, xalqning eng  
yaxshi urf-odatlari va oilaviy an'analari ruhida,  
jamiyat uchun bilimdon va madaniyatlari shaxs  
qilib tarbiyalashdir. Shunday ekan, sog'lom va  
barkamol avlod tarbiyasiga jiddiy qarash, ularning  
tarbiyasiga turli illatlar yaqinlashishi va bundan  
ayrim yovuz niyatli kishilarning o'z maqsadlari  
yo'lida foydalanishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim.  
Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga  
nafaqat oila, balki mahallalar, ustoz-murabbiylar  
va jamiyatimizning har bir vijdonli a'zosi birdek  
mas'ulidir.

Zero sog'lom avlodni voyaga yetkazish bir  
yillik-o'n yillik ish emas, bunga hatto bir avlod  
umri ham kamlik qiladi. Shuning uchun sog'lom  
va barkamol avlodni tarbiyalashni bugundan  
boshlashimiz, ularning ma'naviy dunyosini  
shakllantirishda beparvo bo'lmashligimiz  
zarur. Agar biz sog'lom va barkamol avlodni  
tarbiyalashga erishsak, ona yurtimizning porloq  
kelajagini ta'minlay olgan bo'lamiz.

Shu kunga qadar ota-bobolarimiz yurt  
mustaqilligi uchun kurashib, kerak bo'lsa o'z  
jonini fido qilgan. Biz ozod, mustaqil va farovon  
diyorda yashayotgan ekanmiz, uni kelajak  
avlodga yanada gullatib, yashnatib, obod va ozod  
holda yetkazish burchimizdir. Buning uchun eng  
avvalo sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalab  
voyaga yetkazishimiz kerak.

Demak, oilalardagi sog'lom psixologik muhitni  
shakllantirish va farzand tarbiyasida mahalla va  
keng jamoatchilik o'rnini chuqurroq o'rganishni  
yo'nga qo'yish lozim.

Katta leytenant Sh. ASHURALIYEV,  
HHMQ va HHK qo'mondonligi Psixologiya va  
professional saralash bo'limi katta ofitseri

# Sirli haqiqatning achchiq qaytimi

(voqeiy hikoya)

Zaynab opa yuziga sepilgan muzdek suvdan o'ziga keldi. Ko'zini ochib yonida muk tushib yig'lab o'tirgan qizi Dilrozga bazo'r pichirladi: "Bolalarim... akang... ular tirikmi?" Tashqaridan kelgan noxush xabar va onasining holatidan o'zini yo'qtib qo'ygan qizgina:

– Ayajon, hammalari yaxshi ekan, – dedi ko'zida yosh bilan o'zini qo'lga olib. – Sizning ahvolingizdan qo'rhib ketdim.

– Unda nega... nega xabar olib kelgan odam tayyorgarlik ko'rib turinglar, dedi?

– ...

– Gapsang-chi, qizim, nimaga unday dedi?

– Ana, dadam kelyaptilar! – onasining og'ir savoldidan ko'cha darvozasidan halloslab kirib kelgan Saidqobil aka qutqarib qoldi. – Keldingizmi, dadajon, – otasiga intilib, yig'lab yubordi Dilroz.

– Dadasi, bolalarimiz...

– Eshidim, onasi, eshitdim, avtohalokatga uchrabdi. Xudoga shukur, o'g'lim, kelinimiz soppasog', hoziri shifoxonada. – Xotinini tinchlantirdi Saidqobil aka. –

Turishingdan sening holating yaxshi emas. Do'xtirlar keldi, bir-ikkita ukol olsonsang, tetik bo'lasan.

– Men yaxshiman, faqat noxush xabardan o'zimni yo'qtib qo'ydim. Axir, yarim soat avval Botirjon "Yo'ldamiz, dovondan tushdik, bir soatlarda uyda bo'lamiz, ayajon", degandi. Shunga sal...

– Nima bo'lgandayam, qon bosiming bor, yuraging nimjon. Ukolning zarari yo'q, keyin shifoxonaga olib boraman, bolalarni ko'ramiz.

– Qayerda, qaysi shifoxonada ekan ular?

– Borsak ko'rasan, uzoq emas. Hozir sog'lig'ing haqida o'yla, onasi.

Zaynab opa muolaja qilishga tayyor turgan shifokorga, "bo'lmayсанми", degan ma'noda bedor tikilib turgan eriga qaradi-da, noiloj ukol olishga rozi bo'ldi. Biroq erining xavotirli nigohi, bezovtaligi yuragiga g'ulg'ula soldi. Shifoxonaga yo'l olishar ekan, Dilroznинг ko'zlaridan hamon milt-milt yosh quyulardi...

– Avtohalokatda keltirilgan Madaminovlarni ko'rmochimiz, qaysi bo'limga yotqizildi? – qabulxonadagi hamshiraga yuzlandi Saidqobil aka.

– Er-xotinlar jonlantirish bo'limida.

Ikkinci qavatga chiqasiz. – Ro'yxatga ham qaramay, javob qaytardi hamshira.

– Faqat bolalari...

– Bilaman, – ovozi qaltrab chiqdi Saidqobil akaning, shifoxona ichidagi o'rindiqa bedor o'tirgan xotiniga qarab qo'yar ekan.

– Onasi, yuqori qavatga chiqamiz, – o'g'li bilan kelinini ko'rishga shoshildi erkak...

– Avtohalokatga uchragan er-xotin bizga keltirilgan zahoti ma'lum tekshiruvlardan o'tkazildi, – jonslashirish bo'limi boshlig'i Saidqobil aka bilan Zaynab opani vaziyatdan ogoh etdi. – Ichki qon ketish yo'q, faqat ikkisining ham oyoq-qo'llari lat yegan, ya'ni sinish bor. Davolanishlardan keyin oyoqqa turib ketadi.

– Rahmat, doktor, umringizdan baraka toping, –

yengil tin oldi Saidqobil aka. – Ularni ko'rsak bo'ladimi? Onasi juda ezilib ketdi, ko'rmasa tinchimaydi-da.

– Avtohalokat kutilmaganda bo'lgani uchun bemorlarda stress holati kuzatiladi.

– Er-xotingga tushuntirdi shifokor. – Keyin lat yegan joylarida kuchli og'riq qo'zg'aydi.

Shuning uchun tinchlantiruvchi muolaja qilinadi. Ular hozir uyquda, uyg'onsa, vaziyatga qarab ko'rishning mumkin.

– Nabiralarim-chi, ular ham o'g'lim bilan kelinim oldidami? – yalinchoq ovoz bilan so'radi Zaynab opa. – Iltimos, hech bo'lmasa nabiralarimni bir ko'ray, doktor, ularni juda sog'ingandim.

– Bolalarimi...

– Xotin, qara, senga aytaman deb unutibman, – noxush xabarni yetkazishga o'ng'aysizlanib turgan shifokordan avval javob berishga shoshildi Saidqobil aka, – ukang Valijon qo'l telefonimga qo'ng'iroq qilgandi. Rustamjon bilan Shahinani hozirgina uya olib ketibdi.

– Xayriyat, Alloh asrabdi-da bolalarimni. Unda uya ketdik, dadasi. Bolalarimiz uyg'onguncha nabiralarimni ko'rib, Botirjon yaxshi ko'rgan mastavadan pishiraman, birga olib kelamiz.

Xotinining gapidan Saidqobil akaning yuragi bir qalqib tushdi. "Qani endi, nabiralarim tirik bo'lganida, ularni qanday qilib tuprocqa qo'yamiz, qanday qilib", ko'ksida og'riq turdi erkakning...

Ular uya qaytganida, hovli darvozasi lang ochiq, suvlar sepilgan, qarindosh-urug', mahalla-ko'yig'liib ulgurgandi.

– Dadasi, nima... nima bo'lyapti? – qaltilay boshladi Zaynab opa.

– Zaynab, o'zingni qo'lga ol, nabiralarimiz Allohga ham suyukli ekan, ayrib qoldik...

Ularga peshvoz chiqqan ta'ziyadagi ayollar ko'zlarida yosh bilan Zaynab opani bir-bir bag'riga bosar, hamandardlik bildirib, sabr tilardi. Kesakdek qotib qolgan karaxt ayol "bolalarim", deya bazo'r pichirladi-yu hushini yo'qotdi... U qorong'ilik ichida adashib,

yorug'ilik tomon yo'l izlar, uzoqlardan qudasining nolasi qulog'iga chalinardi: "Qizim ko'zini ochib, bolalarini so'rasha, nima deyman? Ularni necha yillar Xudodan so'rabit, tilab olgandik-ku. Voy, men o'la qolsam bo'lmasmid..." Juda tanish nola, juda ham tanish. Buni avval ham eshitgan. Zaynab opa ko'zini ocholmas, nola uni uzoqlarga yetaklardi.

\* \* \*

1989-yil.

– Zaynab Valiyevna, mumkinmi? – ochiq turgan xona ostosanida hamshira qiz paydo bo'ldi. – Bugun ko'zi yorigan juvonning yaqinlari sizga kiritib yubordi, – gulor paketdagisi sovg'anini uning imosi bilan xonadagi kreslo ustiga qo'ydi.

– Bugun oltita ayol tug'di. Ism-sharifi bilan gapir, kim u?

– Eng oxirgi tuqqan juvon. Besh yil deganda farzand ko'ribdi. Yanglishmasam, familiyasi Xoldorova edi. Yaqinlari sizga alohida minnatdorlik bildirib, hammamizga suyunchi tarqatdi-ku.

– Haa, o'g'il ko'rgan kelinmi?

– Xuddi o'zi.

– Yaxshi, ona-bolaga e'tiborli bo'linglar...

Hamshira bo'lim boshlig'i akusher-ginekolog Zaynab Valiyevnaning kayfiyat ko'tarinkи ekanidan, uni "chaqib" olmaganidan xursand bo'lib xonani tark etdi.

Oradan uch kun o'tdi. Zaynab Valiyevna chaqaloqlar xonasiga bosh suqdi.

– Hammasi joyidami, bolalar sog'lig'ida muammo yo'qmi? – mas'ul hamshiradan so'radi karavotchalarda yotgan chaqaloqlarni ko'zdan kechirar ekan.

– Muammo yo'q, Zaynab Valiyevna, hammasi yaxshi tug'ilgan, sog'lim

chaqaloqlar. Bolalar shifokori har kuni ko'zdan kechirib turibdi.

– Yaxshi, onalariga vaqtida beringlar, qorni to'q bo'lsa yig'lamaydi. Keyin tagliklariga e'tiborli bo'ling, nam holda yotmasin.

– Albatta, tez-tez ko'zdan kechirib turibmiz.

– Qani, mana bu chaqaloqning yo'rgagini oching-chi, qanday holatda ekan?

Hamshira bosh shifokor ko'sratgan chaqaloqni olib maxsus joyga yotqizdi va yo'rgagini ochdi. Zaynab Valiyevna polvongina chaqaloqni istamaygina qo'liga olib, orqa-oldilarini ko'zdan kechira boshhladi va kutilmaganda bolakay uning qo'lidan sirg'alib pastga tushib ketdi. Polga boshi bilan urilgan chaqaloq chinqirib yubordi, hamshira turgan joyida qotib qoldi... Bir kun o'tib boshidan lat yegan chaqaloqdagi hayot alomati to'xtadi. U tug'ilishidan boshlab yozilgan barcha ma'lumotlar zudlik ila o'zgartirildi: "Og'ir holatda tug'ilgan, yurak urushi yaxshi emas, o'ta nimjon..."

Bolakay besh yil befarzandlik azobini tortgan ota-onaning ko'z nuri edi.

Bolasidan ayrligan juvon hushini yo'qotdi. Uning onasi nola qilib charchamasdi: "Qizim ko'zini ochib bolasini so'rasha, nima deyman? Allohimdan necha yillar so'rabit olgandik bu bolani..."

– Derazalarini yopinglar, – hamshiralarga buyurdi Zaynab Valiyevna. – Shu ayolning ovozi qulog'imga yoqmayapti.

Derazalar bilan birga bo'lib o'tgan ishlar ham yopildi. Zaynab Valiyevnadek turmush o'tog'i katta lavozimda, akasi viloyat prokurori bo'lgan ayolga kim ham bas kelardi, kim e'tiroz bildira olardi?

Oradan ikki-uch yil o'tib, tug'uruq bo'limida yana shunday fojia takrorlandi. Bu gal hamshira qiz chaqaloqlardan birini qo'lidan tushirib yubordi. Bolasidan ayrligan ona faryod qilganicha qolaverdi. Zaynab Valiyevna hamshiradan undirgan katta pul evaziga uning "xatosini" siliqqina to'g'riladi. Axir jinoiy ish ochilsa, o'zi ham amalidan ayrlishi aniq.

\* \* \*

Necha-necha yillar ortda qoldi. Zaynab opaning nabirali bo'lishi oson kechmadi. Ko'zining nuri, qalbining qo'ri bo'lgan to'qqiz va besh yoshli nuridiyalari yo'qlikka yuz tutdi.

Zaynab opa ko'zini ocholmas, hamon uzoq-uzoqlardan bolasidan ayrligan onalarning nolasi qulog'iga chalinardi.

# YÖZGİ PARAOSIYO O'YINLARI

Xitoyning Xanchjou shahri mezonlik qilgan IV yozgi Paraosyo o'yinlari yakunlandi. 11 sport turi bo'yicha 108 nafar para sportchilar bilan ishtirot etgan O'zbekiston delegatsiyasi Paraosyo o'yinlari tarixida medallar soni bo'yicha eng yaxshi natijani qayd etdi. Ushbu muvaffaqiyatga Mudofaa vazirligi Oly sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham o'z hissasini qo'shishdi.



O'zbekiston delegatsiyasi yaqinda bo'lib o'tgan XIX yozgi Osiyo o'yinlaridagi ishtirokini 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza, jami 71 ta medalni qo'lga kiritgan holda yakunlagan va bu sportchilarimizning Osiyo o'yinlari tarixida "medallar sifati va soni bo'yicha eng yaxshi natijasi" bo'lgandi. Bu holat qaysidir ma'noda o'tgan hafta oxirida nihoyasiga yetgan IV yozgi Paraosyo o'yinlarida ham takrorlandi. Para atletlarimiz ushbu nufuzli musobaqaning 25 ta oltin, 24 ta kumush va 30 ta bronza, jami 79 ta medalini qo'lga kirtdi. E'tiborlisi, bu O'zbekiston delegatsiyasining Paraosyo o'yinlari tarixida "medallar soni bo'yicha eng yaxshi natijasi" bo'ldi. Zero, O'zbekiston delegatsiyasi bundan besh yil muqaddam Indoneziyaning Jakarta-Palembang shahrida o'tgan III yozgi Paraosyo o'yinlarida 33 ta oltin, 24 ta kumush va 18 ta bronza, jami 75 ta medalni qo'lga kirtgandi.

IV yozgi Paraosyo o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi 11 sport turi bo'yicha 108 nafar para atletlar bilan qatnashdi. Ularning 5 nafarini Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari tashkil etdi va musobaqa yakunida 4 nafari sovrindor bo'ldi. Para yengil atletika bo'yicha MVSM tarbiyalanuvchilari Temur Giyazov hamda Doniyor Ahmedovning kumush va bronza medalni qo'lga kiritgani haqida gazetamizning avvalgi sonida ma'lumot bergen edik. Doniyor Ahmedov T13 klassida 100 metr masofaga yugurish bahslarida bronza medalga sazovor bo'lgandan so'ng T13 klassida erkaklar o'rtasida uzunlikka sakrash bahslarida ishtirok etdi. Bu bahslarda armiyamiz para atleti 6.88 metr natija ko'rsatib, shohsupaning eng yugori pog'onasiga ko'tarildi – Paraosyo o'yinlarining oltin medali bilan taqdirlandi.

Shundan so'ng bahslarga qo'shilgan MVSMning yana ikki nafar vakili g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi. Jumladan, para uzunlikka sakrash bahslarida yurtimiz sport sharafini himoya qilgan MVSM vakili Omad Hasanov barcha raqiblarini ortda qoldirib, oltin medalga ega chiqdi. Para yengil atletikaning yadro uloqtirish bahslarida qatnashgan MVSM vakili Muhammad Rixsimov esa 14.52 metr natija bilan musobaqa g'olibi bo'lди.

IV Para osyo yinlirida 44 ta davlatdan tashrif buyurgan 3 ming 800 nafar sportchi qatnashib, 22 ta para sport turi bo'yicha g'oliblik uchun o'zaro bahs olib borishdi. O'zbekiston sport delegatsiyasi 11 ta para sport turi bo'yicha 103 nafar sportchi bilan ishtirok etdi va yakunda para atletlarimiz tomonidan 79 ta medal qo'liga kiritildi hamda 25 marotaba milliy g'ururimiz va iftixorimiz bo'lgan Vatanimiz madhiyasi yangrashiga sabab bo'lди.

Ta'kidlash joiz, para atletlarimiz medallarni qo'lga kiritish barobarida tarixiy natijalar qayd etishdi, bir necha marta Paraosiy o'yinlari rekordlarini yangilashdi. Jumladan, para kanoechilarimiz tomonidan mazkur Para Osiyo o'yinlarida 100 foizlik natija qayd etildi – musobaqada ilk bor ishtirok etishiga qaramay, O'zbekiston para kanoe terma jamoasining barcha 6 nafar a'zosi, ya'ni Shahzoda Mamadaliyeva (VL3), Iroda Rustamova (VL2), Azizbek Abdulhabibov (VL2), Hasan Qo'idoshev (KL3), Shahnoza Mirzayeva (KL3) hamda Hayitmurod Sherqo'ziyev (VL3) oltin medalga sazovor bo'ldi. Terma jamoamiz ushbu yo'nalishda umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi.

Shuningdek, para suzish bo'yicha 50 metrga erkin usulda suzish bo'yicha S13 toifasida kechgan bellashuvlari O'zbekiston terma jamoasining benefisiga aylandi. Boisi, unda barcha sovrinli o'rinnan hamyurtlarimizga nasib etdi. Bahsda Islam Aslanov oltin, Muzaffar Tursunxo'jayev kumush va Kirill Pankov bronza medalni qo'lga kiritdi.

Para suzish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosiz Firdavsbek Musabekov esa mazkur Paraosiy o'yinlarining biryo'la 3 ta medaliga egalik qildi. Erkaklar o'rtasida S13 klassida 200 metrga kompleks usulda suzish bahslarida ishtirok etgan hamyurtimiz bronza medali sohibiga aylandi. S13 klassida 100 metrga brass usulda suzish bahslarida 1:08.36 daqiqa natija qayd etib, kumush medalni qo'lga kiritdi. S13 klassida erkaklar o'rtasida 400 metrga erkin usulda suzish bahslarida esa 4:28:59 daqiqa natija ko'rsatgan Firdavs Musabekov yana bir bronza medalqa sazovor bo'ldi.

Xanchjouda o'tgan mazkur nufuzli musobaqada qirqdan ziyod mamlakatdan faqat 28 tasining sportchilari shohsupaga ko'tarildi, shundan 24 davlat vakillari oltin medalga sazovor bo'ldi. 25 ta oltin medaljamg'argan O'zbekiston delegatsiyasining yengil atletika bahslarida erishgan natijalari ham tahsinga loyiq. Ushbu sport turi bo'yicha nafaqat qit'amizda, balki jahonda yetakchilardan biri sifatida e'tirof etiladigan atletlarimiz 12 ta oltin, 8 ta kumush va 10 ta bronza medalni qo'lg'a kiritishdi. Uch nafar para yengil atletikachimiz musobaqada g'olib chiqish barobarida Paraosiyo o'yinlari rekordini yangiladi. Jumladan, erkaklar o'rjasida F41 klassida yadro uloqtirish bahslarida qatnashgan Bobur Omonov yadroni 13.14 metrga uloqtirdi va Paraosiyo o'yinlari rekordini o'rnatgan holda oltin medal bilan taqdirlandi. Kubaro Hakimova ham F41 klassida yadro uloqtirish sektorida Osiyo rekordini o'rnatgan holda oltin medal sohibasiga aylandi. Bayroq dorimiz Nurxon Qurbonova esa ayollan o'rjasida F54 klassida nayza uloqtirish bahslarida ishtirok etib, 18.95 metr natija bilan Paraosiyo o'yinlari rekordini yangiladi va oltin medalga sazovor bo'ldi.



Qurbanova bungacha yadro uloqtirish bahslarida ham qatnashib, kumush medalga egalik qilgandi.

Nam qatnashib, kumush medaliga ega ni qigandi.

Ayollar o'rtasida uzunlikka sakrash T11/12 tasnidifa hamyurtimiz Asila Mirzayorova oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Yoqutxon Xolbekova ushbu yo'nalishda bronza medali bilan taqdirlandi. Bu ikki vakilimiz shu bilan qanoatlanib qolmadi. Yoqutxon T12 klassida 400 metrga yugurish bahslarida ham ishtirok etdi va marraga uchinchi bo'lib yetib kelib, Paraosiy o'yinlarida o'zining ikkinchi medaliga ega chiqdi. Asila esa ayollar o'rtasidagi T11 klassida 400 metrga yugurish bahslarida ham ishtirok etdi va 1:01:37 daqqa natija bilan bronza medalga sazovor bo'ldi. Ta'kidlash lozim, bu uning joriy Paraosiy o'yinlaridagi uchinchi medali bo'ldi. Zero, Asila Mirzayorova bungacha para yengil atletikaning ayollar o'rtasida T11 klassida 200 metrga yugurish bahslarida ham ishtirok etib, bronza medal bilan taqdirlangandi.

IV Paraosiy o'yinlarida O'zbekistonning 74 nafar sportchisi para dzyudo, para suzish, para yengil atletika, para pauerlifting, para kanoe va akademik eshkak eshish, para taekvondo, para velosport turlari bo'yicha o'tkazilgan shiddatli bellashuvlarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qildi. Matonatli paralimpiyachilarimiz 25 ta oltin, 24 ta kumush va 30 ta bronza, jami 79 medalni qo'lga kiritib, Vatanimiz sport shuhratini ulug'lagan holda yurtimizga qaytib keldi. Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida ushbu nufuzli musobaqa g'oliblari, sovrindorlari va ishtirokchilarini tantanali kutib olish marosimi tashkil etildi. Shu munosabat bilan bu yerga davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, sportchilar, paralimpiyachilarimizning ota-onalari, jurnalistlar vig'ildi.

yig'ildi.  
Paralimpiyachilarimiz ulkan havo kemasidan qo'llarida Vatanimiz bayrog'ini mag'rur ko'targan holda chiqib kelishdi. Karnay-surnay sadolari, kutib olishga yig'ilganlarning "O'zbekiston!" degan hayqirig'i g'alaba quvonchini yanada oshirdi. Ushbu lahzalar nafaqat aeroportda hozir bo'lganlarni, balki marosimni oynayi jahon orqali kuzatganlarni ham to'lqinlantirib yubordi, ko'zlarini quvonch ko'zvoshlariqa to'ldirdi. Barakalla!!!

# TILOVOV “KATTA DUBULG‘A” DA HAM SOVRINDOR

Birlashgan Arab Amirliklari poytaxti Abu-Dabi shahrida dzyudo bo'yicha "Katta dubulg'a" turniri bo'lib o'tdi. Mamlakatimiz sportchilari bittadan oltin va kumush medalni qo'iga kiritib, umumjamoa hisobida 4-o'rinni egalladi. Medallarning biriga Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Muhriddin Tilovov sazovor bo'ldi.

Yilning nufuzli turnirlaridan biri hisoblangan Abu-Dabi "Katta dubulg'a" sida dunyoning 77 davlatidan 450 nafr dzyudochi ishtirok etdi. Sportchilar g'oliblik bilan birga jahon va "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari reytingi uchun ham kurash olib bordi. Turnir ana shunday nufuz va ahamiyatga ega bo'lsa-da, O'zbekiston terma jamoasi murabbiylar shtabi bu safar bir necha yetakchi dzyudochilarimizga dam berishga qaror qilishdi. Terma jamoamiz BAA turniriga deyarli ikkinchi tarkib, aniqrog'i "Xanchjou – 2022" yozgi Osiyo o'yinlariga jalb etilmagan dzyudochilarimiz bilan bordi. Shunga qaramay, polvonlarimiz sovrindorlar qatoridan joy olishdi.

O'zbekiston terma jamoasi hisobiga dastlabki medalni Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Muhriddin Tilovov (-66 kg) keltirdi. U avvaliga turkmanistonlik Serdar Rahimovni, so'ng saudiyalik Munis Havsavini, chorak finalda BAA vakili Narmandah Bayanmunhni, yarim finalda esa mo'g'ulistonlik Erxembayar Battogtohni mag'lubiyatga uchratdi. MVSM vakiliga finalda "Tokio – 2020" Olimpiadasining kumush medali sohibi, gruziyalik Vaja Margvelashvili qarama-qarshi keldi. Afsuski, Tilovov ushbu bellashuvda imkoniyatni boy berdi va Abu-Dabi "Katta dubulg'a"sining kumush medali bilan taqdirlandi. Eslatib o'tamiz, Tilovov bundan ikki oy oldin Xorvatiyada o'tkazilgan Zagreb Gran-prisida bronza medalni qo'iga kiritgan va "Parij – 2024" reytingi uchun 350 ochkoni o'z hisobiga qo'shib qo'ygandi. Bu safar u qariyb 500 reyting ochkosiga ega bo'ldi.

Terma jamoamiz a'zosi Shahram Ahadov Abu-Dabi "Katta dubulg'a" sida yanada muvaffaqiyatlari qatnashdi. 73 kg vazn toifasida yurtimiz sport sharafini himoya qilgan dzyudochimiz barcha raqiblaridan ustun keldi. Finalda u Yevropa championi kosovalik Akil Gyaakovani mag'lub etdi va musobaqaning oltin medali bilan taqdirlandi. Shahram Ahadov muvaffaqiyati sharafiga Abu-Dabi "Katta dubulg'a" sida davlatimiz bayrog'i yuksak ko'tarilib, Vatanimiz madhiyasi yangrasi.

Xalqaro turnirda yana bir dzyudochimiz – Kamoliddin Baxtiyorov (-60 kg) ham sovrindorlar safidan joy olishga juda yaqin bordi. Lekin hal qiluvchi bosqich bellashuvida bu dzyudochimizdan omad yuz o'girdi. Shunga qaramay, Abu-Dabi "Katta dubulg'a" sida 5-o'rindan joy olgan Kamoliddin Baxtiyorov ham "Parij – 2024" Olimpiadasining qimmatli reyting ochkolariga musharraf bo'ldi.

Musobaqada 3 ta oltin medal jamg'argan Italiya terma jamoasi umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. Bittadan oltin hamda kumush medalga sazovor bo'lgan mamlakatimiz sportchilari Kanada (2 ta oltin, bittadan kumush va bronza) va Fransiya (bittadan oltin va kumush, 2 ta bronza) terma jamoalaridan so'ng 4-pog'onani band etdi.

"Xanchjou – 2022" yozgi Osiyo o'yinlarida 3 ta oltin, 2 ta kumush va 4 ta bronza medallarini jamg'arib, o'z tarixidagi eng yaxshi natijani qayd etgan dzyudo bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi navbatdagi musobaqaqlarga tayyorgarlikni davom ettirmoqda. Mashqlar jarayonida yangi kombinatsiyalar ustida ishlaniib, dzyudochilarimizning texnik harakatlari yanada sayqal olmoqda. Zero negizi MVSM vakillaridan iborat O'zbekiston terma jamoasi dzyudochilarini oldinda joriy yil taqvimidagi so'nggi musobaqa, ya'ni 2–3-dekabr sanalariga belgilangan Tokio "Katta dubulg'a"si kutmoqda. Unda qatnashuvchi terma jamoamiz asosiy tarkib vakillaridan jahon va "Parij – 2024" Olimpiadasi uchun maksimal darajada reyting ochkolarini jamg'arish talab etiladi.



## SHOHSUPA (xabarlar)



### BUTUNJAHON JANGOVAR SPORT O'YINLARI

Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida 120 dan ziyod davlat sportchisi ishtirokida III Butunjahon jangovar sport o'yinlari bo'lib o'tdi. 16 sport turining 25 ga yaqin yo'nalishida o'tkazilgan "World combat games" o'yinlarida yurtimizning 44 nafr vakili 8 sport turi bo'yicha bahslarda qatnashdi. O'zbekiston sportchilari 8 ta oltin, 7 ta kumush va 11 ta bronza medallarga sazovor bo'ldi va umumjamoa hisobida 6-o'rinni egalladi. Eslatib o'tamiz, 2010-yili Xitoyda o'tgan "World combat games"da yurtimiz sportchilari 2 ta oltin, bitta kumush medal bilan umumjamoa hisobida 20-o'rinni, 2013-yil Rossiyada tashkil etilgan bahslarda bittadan oltin, kumush va 2 ta bronza medal bilan 28-o'rindan joy olgandi.

### TAEKVONDO



"Xanchjou – 2022" yozgi Osiyo o'yinlarida 3 ta oltin, 2 ta kumush va 4 ta bronza medallarini jamg'arib, o'z tarixidagi eng yaxshi natijani qayd etgan dzyudo bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi navbatdagi musobaqaqlarga tayyorgarlikni davom ettirmoqda. Mashqlar jarayonida yangi kombinatsiyalar ustida ishlaniib, dzyudochilarimizning texnik harakatlari yanada sayqal olmoqda. Zero negizi MVSM vakillaridan iborat O'zbekiston terma jamoasi dzyudochilarini oldinda joriy yil taqvimidagi so'nggi musobaqa, ya'ni 2–3-dekabr sanalariga belgilangan Tokio "Katta dubulg'a"si kutmoqda. Unda qatnashuvchi terma jamoamiz asosiy tarkib vakillaridan jahon va "Parij – 2024" Olimpiadasi uchun maksimal darajada reyting ochkolarini jamg'arish talab etiladi.

### ESHKAK ESHISH



Yaponiyada slalomda eshkak eshish bo'yicha "Parij – 2024" yozgi Olimpiadasiga yo'llanmalar taqidim etadigan Osiyo championati yakuniga yetdi. Championat nizomiga muvofiq, oltin medallarga sazovor bo'lgan sportchilar Olimpiya o'yinlari yo'llanmasini qo'iga kiritishi belgilangan edi. Afsuski, hamyurtlarimizning natijasi oltin medal uchun kamlik qildi. Musobaqada O'zbekiston terma jamoasi 2 ta kumush va bitta bronza medalla sazovor bo'ldi. Hamyurtlarimiz baydarka va kanoe slalomlarida kechgan jamoaviy dasturlarda kumush medallarga ega chiqishgan bo'lsa, yakkalik bahslarida terma jamoamiz a'zosi Alibek Temirgaliyev shohsupaning 3-pog'onasidan joy oldi.

### YENGIL ATLETIKA



Janubiy Koreyaning Mokpo shahrida yengil atletikaning uloqtirish turlari bo'yicha o'tkazilgan Osiyo championatida mamlakatimiz sportchilari munosib qatnashdi. Yadro uloqtirish bahslarida hamyurtimiz Malika Nasriddinova 2-o'rinni egallab, kumush medalga sazovor bo'ldi. Musobaqaning disk uloqtirish bahslarida ishtirok etgan sportchimiz Rashidbek Sodiqov esa 3-o'rinni egalladi.

### TENNIS



Qarshi shahrida o'smirlar o'rtasida tennis bo'yicha "ATF 14&Under" xalqaro turniri tashkil etildi. O'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarda turkmanistonlik Imran Axunov g'olib chiqdi, hamyurtimiz Yusufbek Malikov esa vitse-championga aylandi. Qizlar o'rtasidagi bahslar yakunida Ilima Guseynova (Turkmaniston) va Muslimaxon Turdimurodova (O'zbekiston) shohsupaga ko'tarildi. O'g'il bolalar o'rtasidagi juftlik bahslarida turkmanistonlik Imran Axunov va Selim Chagilov tandemni bosh sovrinni qo'iga kiritgan bo'lsa, qizlar bahsida qozog'istonlik Polina Barabanova hamda Yekaterina Kiryushenko juftligi championga aylandi.

# VO'LDA



Gurung berib uzun yo'llarni qisqartirishni eplolmayman. Rostini aytsam, bunga xohishim yo'q, asli. Ammo yaxshi tinglovchiman, bunisi aniq. Menga yo'l manzaralarini kuzatib borish yoqadi. Har kuni yonidan o'tib-qaytadiganim

eski depo o'rnila qurilish boshlanganidan beri ancha-muncha daraxtlar kesib tashlandi. Sersoya yo'lak daraxtlarsiz avvalgi fayzini yo'qotgan. Qurilish qarhisida

qancha daraxtlar qolganini sanaganman. Ichkarida o'ttizta daraxt bor, xuddi cho'ltoq supurgiga o'xshab qolgan. Navbatdagi bahorni

qarshilash hammasiga nasib etarmikan... Katta yo'l yoqasidagilari yashnab turibdi, hozircha. Ularni sanamanman, katta yo'l yoqasi ichkaridan ko'ra xavfsiz.

Ertalab ko'chani kesib o'tgunimga qadar 17-avtobus ketib qoldi. Orqasidan yugursam... Bu vaznda yugurish... Yaa-g'aaay. Yaxshi bo'ldi qaytaga, shu ertalabki ur-tiqilinchda ketmasam ketmasman (*ulgurganimda yaxshi bo'lardiku-ya, ur-tiqilinchligi ham bilinmasdi*).

Darrov mashina ham to'xtay qoldi. Manzil va yo'lkira summasini aytdim. Toshkent bir ko'rgan odamingni yana qaytib ko'rmaydigan darajada katta shahar emas, albatta. Bu haydovchining mashinasiga avval ham chiqqan bo'lsam kerak, hazil aralash so'radi:

– Yo'lkira narxi oshmadimi?

– O'tgan qishda ziyodasi bilan oshgan, qayta oshgani yo'q, – dedim jiddiy turib.

– O'tiring.

To'p etib o'tirib oldim. Mashina silkinib ketganiga parvo qilganim yo'q. Hozirlar kirakashlarning mashinasi ham avtobuslardan keskin farq qilmaydi. Haydovchilarni aytmaysizmi, har bir bekat va bekat bo'limgan joylarda ham to'xtab, qayerga ketishingizni so'rashadi. Ana e'tibor, ana g'amxo'rlik!

Ayrim haydovchilar yo'lda gaplashmasa, yorilib ketishi mumkin. Ayniqsa, kundan kunga masofalari uzayib borayotgan tirbandlikda. Bugun ham shunday bo'ldi. Haydovchining yoshi oltmishlardan oshgan, oilasidan, farzandlaridan mammun bir inson. Uyda bekor o'tirolmaydiganlar xilidan ekanligi aniq. O'zi gap boshlab qoldi:

– Oktabrning boshlarida tug'ilgan kunimni o'tkazdik. Ertalab singlimming o'g'li kirib keldi. "Ishga ketish oldidan sizni qutlab qo'yay, dedim". Shunday deb qog'ozga o'ralgan qutini qo'limga tutqazdi. Ko'zlariga qarasam, ochib ko'rishimni istayapti. Ko'zining o'ngida ochdim.

So'nggi rusumli qimmatbaho telefon. "Nega ovora bo'lding? Men bu telefonni qo'llashni bilmasam? Uy quryapsan, sovg'a o'rniqa uning pulini qurilishga ishlatsang bo'lmaydim?" Rostini aytsam, uy qurayotib bunday qimmat sovg'a ko'tarib kelganidan biroz sifildim. Bu paytda ortiqcha xarajat baribir ortiqcha-da. U esa: "Tog'a, siz bundan ham qimmat sovg'alarga munosibsiz", dedi-da, hay-haylashimga ham qaramasdan chiqliketdi. Eng qizig'i oqshomga yaqin bo'ldi. Singlim ikkinchi o'g'li bilan kirib keldi. Bunisining sovg'asi...

Erkakning vazmin ovozi shu lahzalar o'zgardi, hayajon bor edi. Biroz tin olib davom etdi:

– Jiyanim Umra ziyoratiga yo'llanma sovg'a qildi. Unga

bunday qimmat sovg'ani qabul qilolmasligimni aytdim. Singlim: "Aka, o'g'limning qo'lini qaytarmang", dedi. Jiyanim esa: "Biz uchun qilgan yaxshiliklaringiz oldida bu hech narsa emas. Sovg'a sizga atalgan, qabul qilsangiz ham, qilmasangiz ham. Istanqiz tashlab yuboring", dedi. Tashlab yuborarmidim.

– Demak, vaqtida ular unutmaydigan darajada yaxshiliklar qilgansizki, bugun munosib javob qilishga harakat qilyaptilar.

– Hayotim davomida bir nechta insonlarga juda yaxshi yordam bergenman, qo'llab-quvvatlaganman. Chunki tuzukkina lavozimlarda ishladim, qo'llimdan ko'p ishlar kelardi. Ammo kerak payti hech kimdan javob bo'limgan, unutdilar. Jiyanlarimga qilgan yaxshiliklarim bilan maqtana olmayman.

– Menimcha, hozirgi e'tiborning poydevori ular go'dakligida qo'yilgan. Keyin singillar ham akalarni ayricha noziklik bilan sevadi, – dedim o'zimdan qiyos qilib.

– Bir karomat ko'ssatganim yo'q. Faqat onamga hech qachon "yo'q" demadim. Ayniqsa, gap singillarim haqida ketganida. Onam aytardi: "Qiz bola palaxmon toshi kabi. Har joy ham ota uyi kabi bo'lavermaydi. Erining uyida ko'zyoshini ichiga yutib yashaydi. Akalar ulardan xabar olib turishi kerak, ehtiyojlar bo'lsa, minnatsiz yordam berishi kerak. "Xo'p, oyi, bugunoq ulardan xabar olaman". Shunday, hech qachon "yo'q" demadim, onamga.

\* \* \*

Bu suhabatni unutib yuborishim mumkin edi. Agar... "Onamga hech qachon "yo'q" demadim", degan joyi bo'limganda. Aynan shu gap bir necha kun quloqlarim ostida jaranglab turdi, unutolmadim. Ko'nqlimdan bir qator savollar kechdi.

Vatan xizmatidek sharafli yumush bo'lmasa kerak. Bu yumushga hayotingni eng kuchga to'lgan damlarini baxshida etasan. Asli, seni kim bu sharafli yo'lga yo'lladi? Bu haqda o'ylab ko'rganmisan? Javobing tayin: orzularim, intilishlarim. Etimol, haqlisan. Ammo bir fidokor, Ona degan beminnat xizmatchi ham borligini unutishga haqqing yo'q. Maosh, mukofotlar talab qilmagan xizmatchi. U seni to'qqiz oy qiyinchiliklar bilan yurakkiasi ostida ko'tardi. Shu holida bitmas-

tugamas uy yumushlarini bajardi, qaynona-qaynota, qaynopa-yu qaynbo'yinlar uchun taomlar pishirdi, o'zi istamagan yemaklardan ko'ngli behuzur bo'lsa ham, qozon-o'choq ishlarini uddaladi. Tug'ilib ham hayotini yengillatganing yo'q, ammo u shunday yaralganki, seni borliging, tabassumingga dunyosini nisor qilishga tayyor.

Tovoningga tosh tekkizmay katta qiladi, orzularing asli unikidir! Mehr-u muhabbat bilan parvarishladiki orzular yuksaldi, ushaldi. Shom-u saharlar qilgan duolarida sen borsan.

Bugun barcha odamlar kabi ishlaring tig'izdir. Ammo har lahza senga intiq insonni ham unutma. Muhim ishlaringni pesh qilma unga! Biror ehtiyoji yo'qmikan? Opang yo singling uchun bir narsalar so'rashga istihola qilayotgandir, axir sening ham oilang bor. O'zing so'ra, qo'rhma, imkoningdan ortiq narsa so'ramaydi. Chunki u onang! Onangdan opasingillaringni ehtiyojlar haqida so'ra, o'g'lingni ham o'rgat, qizlaring bor. Qizlarning esa hamisha shafqat, mehr, sevgiga ehtiyojlar bor!

Inobat IBROHIMOVA,  
«Vatanparvar»

# An'ana, tajriba va mahorat

Bugungi zamonaviy texnologiyalar asrida ommaviy axborot vositalarini fotosuratlarsiz tasavvur qilish qiyin. Xoh bosma, xoh internet nashri bo'sin, auditoriyaga axborotni to'liq yetkazishda fotosuratlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz va xalqaro miyosda o'tkaziladigan turli tadbirdarda fotomuxbirlarga erkin harakatlanib tasvirga olishi uchun imkon yaratib berilishi ham bejiz emas, albatta. Fotojournalistlar ijodiy ishlari orqali gazeta-jurnallar, internet nashrlaridagi maqolalarni yanada jonlantiradi, ularning ko'rimali, qiziqarli, o'qishli bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Jurnalislari uyushmasi tomonidan Milliy matbuot markazida o'tkazilgan seminar-trening va fotokor'gazma ham ayni maqsadda tashkil etildi. Unda taniqli fotojournalistlar, oliy ta'lim muassasalarini professor-o'qituvchilar, talabalar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda O'zbekiston Jurnalislari uyushmasi raisi v.b. Xolmurod Salimov yurtimizda media soha rivojini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni xususida so'z yuritdi. Bosma va internet nashrlarida faoliyat olib borayotgan fotojournalistlarning ijodiy ishlarini e'tirof etgan holda, "Oltin qalam" milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovida "Eng yaxshi fotoreportaj uchun" nominatsiyasiga alohida e'tibor qaratib kelinayotganini ta'kidladi.

Shundan so'ng O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli fotojournalist Abdug'ani Jumayev "Fotojournalist – ijodkor" mavzusidagi ma'ruzasi orqali ushbu sohaning tarixi, buguni va ertasi haqida so'zlar ekan, milliy journalistika ravnaqi yo'lida qanchadan qancha mohir fotomuxbirlarning munosib hissasi borligini aytib o'tdi. Shuningdek, seminar-trening davomida professor Dadaxon Yoqubov hamda katta o'qituvchi Husniddin Atoning mavzuga oid ma'ruzalari tinglandi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizdagи ommaviy axborot vositalari soni 1 514 tadan 2 140 taga ko'paygani, ulardan 65 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelishi, internet nashrlarining soni 395 tadan 745 taga oshgani ham professional fotojournalistlarga,

ularning ijodiy ishlariga ehtiyoj ortib borayotganini anglatadi.

Seminar-trening ishtirokchilari tomonidan zamonaviy fotojournalistikaning rivojlanish an'analar, bugungi kunda fotojournalistlar oldida turgan muhim vazifalar, mavjud muammolar, OAV fotomuxbirlarining kasbiy mahoratini oshirish, bosma va internet nashrlariga joylashtirilayotgan fotosuratlarning sifatlari bo'lishini ta'minlash singari muhim masalalar muhokama qilindi.

Tadbir yakunida O'zbekiston Jurnalislari uyushmasi a'zoliga qabul qilingan bir guruh jurnalislarga a'zolik guvohnormalari tantanali ravishda topshirildi.

**Sherzod SHARIPOV,  
«Vatanparvar»**



## ✓ ARMIYA VA YOSHLAR

# ELLIKQAL'ALIK YOSHLAR NUKUSDA

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelayotgan Ellikqal'a tumanidagi "Bo'ston inter akademiya" davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi umumiy o'rta ta'lim maktabi 2019-yilda tashkil etilgan. Ushbu ziyo maskanida ayni paytda Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidan jami 250 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi bilan mazkur maktab o'tasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu esa o'z navbatida, yoshlar orasida harbiy xizmat nufuzini oshirish, ularda Qurollı Kuchlarimiz bilan faxlanish va uning salohiyatiga ishonch hissini shakkantirish, shu bilan birga yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirish borasidagi ishlarni samarasini oshirishga katta hissa qo'shmaqda.

Hamkorlik doirasida maktab o'quvchilar uchun harbiy okrug hududiga sayohat tashkil etildi. Qiziqarli va mazmunli o'tgan ekskursiya davomida o'quvchilar shimoliy sarhadlarda Vatan tinchligi va osoyishtaligini himoya qilayotgan harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Harbiy texnika va qurol-aslaha ko'rgazmasi esa o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida unutilmas taassurot qoldirgani bilan ahamiyatlari bo'ldi.

Shu kuni sayohatchilar Shimoli-g'arbiy harbiy okrug tarixi muzeysi, Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyati bilan ham yaqindan tanishdi. Harbiylar bilan bo'lib o'tgan samimiyl muloqot davomida o'zlarini qiziqtirgan savollariga batafsil javoblar oldilar.

"Vatan ulug' – burch muqaddas!" konseptual g'oyasini o'zida mujassam etgan mazkur ekskursiya yoshlarga unutilmas lahzalarini tuhfa etdi. Tashrif davomida ko'pchilik bolalarning qalbida kelgusida harbiy bo'lismi ishtiyoqi yanada alangaladi.



**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**



Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Samarqand viloyati kengashi tasarrufidagi Nurobod turmani o'quv sport- texnika klubi tomonidan rejali ishlar amalga oshirilmoqda.

# AMKORLIK DAGI TADBIRLAR NATIJASI



Jumladan, ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi ishlar shular sirasidandir. Ayniqsa, "Vatanparvar" tashkiloti tashkil etilganining 32 yilligi munosabati bilan hamkor tashkilotlar ko'magida joylarda yoshlari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, turli musobaqalar, ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik tadbirlari o'tkazilmogda.

Shu maqsadda tumanning eng chekka hududlarida ham aholi, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash bo'yicha "Vatanparvar" tashkiloti – mening tanlovim!”, “Ochiq eshiklar kuni”, “Uch avlod uchrashuv” kabi tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmodga.

Kelinmoqda.  
– Yaqinda tumanimizdagι 13- hamda  
34-umumtiyim maktablari o'quvchilari  
ishtiirkoda o'tkazilgan "Vatanparvar"  
tashkiloti – mening tanlovim!" shiori ostidagi  
"Ochig eshibklar kuni" tadbiри ham shular

jumlasidandir, – deydi O'STK boshlig'i Sobirxon Samatov. – Unda tumandagi davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash fani o'qituvchilari hamda umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ishtirot etdi. Muhim sana munosabati bilan "Vatanparvar" tashkiloti sovrini uchun havo miltig'idan o'q otish musobaqasi o'tkazildi. Musobaqa g'oliblari – mohir menganlar tadbir tashkilotchilari tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Shuningdek, yaqin hamkorligi uchun tuman mudofaa ishlari bo'limi, mактабгача va maktab ta'limi bo'limi, tuman hokimligi mutasaddilariga Nurobod tumani O'STK tomonidan tashakkurnoma bildirildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, klub faollari tomonidan tashkil etilayotgan bunday tadbirlarga boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohasida shuningdek turli musobaga bilmalidir.

hamda tanlovlarda g'olib bo'lgan yosh avlod  
vakillari ham taklif etilmogda.

Ayni paytda tashkilotda yoshlarning jismoniy jihatdan yetuk bo'lishlariga katta ahamiyat qaratilmoqda. Klub qoshida "Havo miltig" idan o'q otish" va "Avtosport" kabi seksiyalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mazkur to'garaklarga 50 nafarga yaqin yosh jalb qilingan.

Shu kunlarda O'STKda "B", "BC", "C" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Shuningdek, haydovchilar malakasini oshirish kurslari ham tashkil etilgan. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida 400 nafardan ziyod haydovchi tayyorlanib, bu boradagi rejaning to'liq bajarilishiga erishildi. Tumandagi "Yoshlar daftari" ro'yxatida turadigan kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun ham bir qancha imkoniyat va qulayliklar yaratilmoqda. Ularning turli kasb-hunarlarini egallashlarida amaliy ko'mak berilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarning kelajakda yetuk inson bo'lib kamol topishlariga erishishdir.



# SHIDDATLI VA MUROSASIZ BAHSLAR

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti bugun tom ma'noda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmuni tashkil etish matabiga aylandi.



## ✓ OCHIQ ESHIKLAR KUNI

### "VATANPARVAR" – MENING TANLOVIM!

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Surxondaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Denov avtomobil maktabida "Vatanparvar" tashkiloti – mening tanlovim! shiori ostida ochiq eshiklar kuni bo'lib o'tdi.



barchada katta taassurot qoldirdi. Tashkilotning Surxondaryo viloyati kengashi tasarrufidagi muassasalarida ko'pgina yoshlar sport bilan shug'ullanib, nafaqat O'zbekiston, balki jahon championatlarida ham yuqori o'rinnlari qo'lg'a kiritganligi haqidagi ma'lumot aksariyat mehmonlar uchun yangilik bo'ldi.

Tadbir davomida yoshlarga sportning pnevmatik quroldan o'q otish turi bo'yicha mahorat darsi o'tildi. Ochiq eshiklar kunining ahamiyati shunda bo'ldiki, tadbirga kelgan barcha yoshlar "Vatanparvar" tashkiloti va uning jamiatda tutgan o'rni to'g'risida yanada chuqurroq

"Vatanparvar" tashkiloti faoliyati, uning keng imkoniyatlari to'g'risida, aholi, ayniqsa yoshlar tasavvurini oshirish maqsadida tashkil etilgan ushbu tadbir an'anaga muvofiq, davlatimiz madhiyasi sadolarini bilan boshlandi.

"Vatanparvar" tashkiloti va tuman mudofaa ishlari bo'limi mutasaddilarini hamda mehnat faxriyari tadbirda ishtirok etayotgan 100 dan ziyod yosh bilan bevosita muloqotda bo'ldilar.

Yoshlarga "Vatanparvar" tashkiloti tizimidagi texnik va amaliy sport turlari bo'yicha tashkil etilgan sekiyalarning ko'rgazmalarini namoyish etildi. Ayniqsa, avtosport vositalari hisoblanmish baggi, karting va sport mototsikllari ishtirokidagi ko'rgazmali chiqishlarini

Uchrashuvda 100 nafr yosh bilan ularning ongiga vatanparvarlik, mehnatga mas'uliyatlari munosabat va harbiy xizmatga hurmat tuyg'ularini singdirishga qaratilgan suhbatlar qurildi.

Tadbir davomida yoshlarda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining o'quv avtomobilari hamda "Avtokross", "Motokross", "Karting", "Duatlon", "Pnevmatik quoldan o'q otish" kabi sport sekiyalarning ko'rgazmalari katta qiziqish uyg'otdi.

Yig'in ishtirokchilariga tashkilot tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlari to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Tadbir ishtirokchilari "Vatanparvar" tashkiloti faoliyatida yoshlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar va imtiyozlar to'g'risida batafsil ma'lumotlarga ega bo'ldi.

## ✓ JASORAT MAK TABI

### TASHKILOT FAOLIYATI TANISHTIRILDI

Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismida "Jasorat maktabi" o'quv yig'inining ichki ishlar idoralarida profilaktik nazoratda turgan hamda uyushmagan yoshlari mehmon bo'ldi.



# Jangovar ruh –

## JANGCHINING QUDRATLI QUROLI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligiga bag'ishlanadi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Vatanparvar" gazetasi va "O'zbekiston armiyasi" jurnali o'quvchilar, harbiy xizmatchilar, jurnalist, yozuvchi va professional ijodkorlar o'tasida jangovar ruhni oshirish, milliy armiyamiz qo'shinlarining harbiy qudrati, jangovar safarda xizmat qilayotgan Vatan himoyachilarining fidoyiliqi, jasorati, xizmat vazifasini bajarish chog'iда qahramonlarcha halok bo'lgan yigitlar xotirasini abadiylashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning yuksak ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik sifatlarini oshirish, ular qalbida Vatanga muhabbat, Qurolli Kuchlardan g'ururlanish va harbiy xizmatga chuquq hurmat tuyg'ularini kamol toptirish, ulug' sarkardalarimiz hayoti va faoliyati, qahramonliklari, boy merosini targ'ib qilish orqali harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyanati "Jangovar ruh – jangchining qudratli quroli" deb nomlangan publisistik maqolalar tanlovini e'lon qiladi.

### TANLOV SHARTLARI

Taqdim etilgan ijodiy ishlar 2023-yilning 29-sentabridan 2023-yilning 15-dekabrigacha (*Word shaklida, 14 shriftda, kirill yoki lotin alifbosida*) "Vatanparvar" birlashgan tahririyaniga yuborilishi lozim.

**Manzil:** 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.  
Elektron manzil: [vatanparvar-bt@mail.uz](mailto:vatanparvar-bt@mail.uz) yoki telegram manzili (90) 968-62-08.

Quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:  
– muallif pasporti (*shaxsini tasdiqlovchi hujjat*) nusxasi;  
– muallifning manzili va bog'lanish telefonlari;  
– muallifning xizmat (*ish*) joyi.

**Murojaat uchun telefonlar:**  
(71) 260-36-50, 260-32-57.

Eng sara ijodiy ishlar "Vatanparvar" gazetasi sahifalarida "Jangovar ruh – jangchining qudratli quroli" tanlovi rukni ostida chop etiladi.

### G'OLIBLARNI MUKOFOTLASH

G'oliblar quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:  
1-o'rinn (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 25 (*yigirma besh*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;  
2-o'rinn (2 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (*yigirma*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;  
3-o'rinn (3 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (*o'n besh*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;  
rag'batlantiruvchi mukofotlar (5 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (*o'n*) barobari, diplom va kitoblar to'plami.

Natijalar "Vatanparvar" gazetasi va saytida hamda mudofaa.uz saytining telegram kanalida e'lon qilinadi.

Tanlov g'oliblari va sovrindorlariga mukofotlar 2024-yil Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida tantanali ravishda topshiriladi.

"Vatanparvar"  
birlashgan tahririyanati

**OBUNA - 2024**

"Vatanparvar" gazetasi  
nashr ko'rsatkichi – 114  
"O'zbekiston armiyasi" jurnali  
nashr ko'rsatkichi – 1273

**— Men  
"Vatanparvar" ni tanladim.  
Siz-chi?**

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyanati bilan bog'lanish uchun telegram bot

### QUYIDAGI MASALALAR BO'YICHA MEROJAATLARINGIZ BO'LSA, QO'NG'IROQ OILING:



- psixologik qo'llab-quvvatlash;
- oilaviy munosabatlar;
- shaxs sifatida rivojanish;
- psixologik maslahat olish;
- nizoli masalalar bo'yicha psixologik yordam ko'rsatish;
- bolalar psixologiyasi;
- stressli vaziyatlar.

HAL QILIB BO'LMAJDIGAN MUAMMO YO'Q,  
HAR QANDAY VAZIYATDAN CHIQISHNING  
MUNOSIB YO'LI BOR!



**SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI**

<b>VATANPARVAR</b>	<b>MUASSIS</b>  O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI <a href="http://www.mudofaa.uz">www.mudofaa.uz</a>	<b>Tahririyat kengashi:</b> general-major Hamdam Qarshiyev polkovnik Otobek Yuldashev polkovnik Alisher Boboxonov Maqsud Abilov	<b>Bosh muharrir:</b> podpolkovnik Ahror Ochilov	<b>Navbatchi:</b> katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov <b>Sahifalovchi:</b> Nodirabegim Ne'matova <b>Musahih:</b> Sayyora Meliqo'ziyeva	<b>Gazeta juma kuni chiqadi.</b> Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.	
		Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqziq qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyanat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyanating kompyuter markazida sahifalandi.	<b>ISSN 2010-5541</b>  Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan. <b>Telefonlar:</b> kotibiyat: 71 260-36-50 buxgalteriya: 71 260-35-20 yuridik bo'lum: 71 260-29-41 faks: 71 260-32-29	Buyurtma: V-5631 Hajmi: 6 bosma taboq Bichimi: A3 Adadi: 31 047 nusxa Bosishga topshirish vaqt: 14:00 Topshirildi: 14:30	Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiha "O'zbekiston" NMIU mas'ul.	<b>Nashr ko'rsatkichi:</b> 114. Bahosi: Kelishilgan narxda.  "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.